

“PEDAGOGY & PSYCHOLOGY”

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2025-yil, 2-son

Jurnal 2023-yildan chiqa boshlangan

“KAMOLOT” nashriyoti

BUXORO-2025

Muassis: Buxoro davlat universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazi

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi
Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan
2022-yil 16-noyabr № 04-8644-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.



Sattorov Mirshod Erkinovich, Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Jamoatchilik kengashi raisi:

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mas'ul kotib:

Nusratov Anvar Ne'matjonovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Jurnal 2023-yilda tashkil etilgan, oyda bir marta o'zbek, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 200100, O'zbekiston Respublikasi,
Buxoro shahri Namozgoh ko'chasi 24-uy,
E-mail: sjkamolot@gmail.com
Jurnal sayti: <https://scientificjournal.uz/>



ISSN 2992-8966 e

Maqolada keltirilgan faktlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir.

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

“PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA”	TAHRIR HAY’ATI:
Muassis: Buxoro davlat universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazi	Ilmiy-nazariy va metodik jurnal Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Raxmonovich
Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot Agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2022-yil 16-noyabr № 04-8644-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.	Adizov Baxtiyor Raxmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor
	Xamidov Obidjon Xafizovich · iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich–pedagogika fanlari doktori,professor	Mamurov Bahodir Baxshullayevich pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Jamoatchilik kengashi raisi: Adizov Baxtiyor Raxmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor, Mas’ul kotib: Nusratov Anvar Ne’matjonich pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD),dotsent	Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor
Jurnal 2022 yilda tashkil etilgan, 2 oyda bir marta o‘zbek, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.	Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)
Tahririyat manzili: 200100, O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Namozgoh ko‘chasi 24-uy, E-mail: sjkamolot@gmail.com Jurnal sayti: https://scientificjournal.uz/ Maqolada keltirilgan faktlarning to‘g‘riligi uchun muallif mas’uldir.	Emelyanova Irina Evgenievna, pedagogika fanlari doktori, professor (Janubiy Ural davlat gumanitar pedagogika universiteti, Rossiya)
	Filippova Oksana Gennadiyevna,pedagogika fanlari doktori, professor (Janubiy Ural davlat gumanitar pedagogika universiteti, Rossiya)
	Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor
	Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori,professor
	Safaraliyev Bozor Safaraliyevich, pedagogika fanlari doktori, professor (Chelyabinsk davlat madaniyat instituti,Rossiya)
	Chariyev Irgash To‘rayevich, pedagogika fanlari doktori,professor
	Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori,professor
	Bafayev Muxiddin Muxammatovich psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
	Izbullayeva Gulchehra Veleriyevna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
	Qo'ldoshev Rustamek Avezmurodovich pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
	Hojiyeva Zulfiya O‘ktamovna pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
	Ramazonov Jahongir Djalolovich psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
	Umurov Zarif Latifboyevich pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dotsent
	Nusratov Anvar Ne’matjonich – pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
	Sattorov Mirshod Erkinovich psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD),dotsent

MUNDARIJA:

<i>Qarshiyev Ulug'bek Abray o'g'li. O'RTA MASOFAGA YUGURUVCHILAR MASHG'ULOTI TUZILMASI</i>	5
<i>Kurbonov Hakim Khaidarkulovich. DETERMINING THE PRE-COMPETITIVE PSYCHOLOGICAL STATE OF VOLLEYBALL PLAYERS</i>	10
<i>Sultonova Zarina Uchqun qizi. INKLYUZIV TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING XORIJIY PEDAGOGIK AMALIYOTDAGI MODELLARI</i>	14
<i>Rajabova Umida O'ktam qiz. O'ZBEKISTONDA MUSTAQILLIKDAN KEYINGI SPORT SIYOSATI VA JISMONIY TARBIYA TIZIMINING RIVOJI</i>	19
<i>Temirov Abdumalik Ikrom o'g'li. SA'DIYNING GULISTON ASARIDA TA'LIMIY TARBIYAVIY QARASHLAR</i>	23
<i>Saidov G'olibjon Komilovich. JAMOAVIY SPORTDA RUHIY TAYYORGARLIKNING ROLI VA AHAMIYATI</i>	28
<i>Сакиева Зулхумор Махкамовна. ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЕ УМЕНИЯ И ЛИЧНОСТНЫЕ КАЧЕСТВА ПЕДАГОГА</i>	32
<i>Кочеткина Алёна Александровна. ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЕ УМЕНИЯ И ЛИЧНОСТНЫЕ КАЧЕСТВА ВОСПИТАТЕЛЯ ДОУ</i>	38
<i>Хасанова Санобар Гайбуллаевна. ЛИЧНОСТНЫЕ КАЧЕСТВА ПЕДАГОГА, ЗНАЧИМЫЕ ДЛЯ УСПЕШНОСТИ ОБУЧЕНИЯ КУРСАНТОВ ВОЕННО-УЧЕБНОГО ЗАВЕДЕНИЯ</i>	44
<i>Ёдгарова Халимахон Тулкиновна. РАЗВИТИЕ ФИНАНСИРОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ</i>	50
<i>Шайхиманов Нурдаулет Гайратдин угли. ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ МАРКЕТИНГОВЫХ МЕРОПРИЯТИЙ</i>	56

O'RTA MASOFAGA YUGURUVCHILAR MASHG'ULOTI TUZILMASI

Qarshiyev Ulug'bek Abray o'g'li
 "Osiyo xalqaro universiteti" 1-bosqich magistranti.

Annotatsiya: jismoniy tarbiya va sport bugungi kunga kelib yurtimizda shiddat bilan rivojlanayotgan sohaga aylanib kelmoqda. Mazkur maqolada engil atletikada o'rta masofaga yuguruvchi atletikachilar mashg'ulotlari tuzilmasi haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

Kalit so'zlar: engil atletika, jismoniy tarbiya, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy sifatlar, anaerob, aerob, tanaffus, tiklanish, yugurish texnikasi, yugurish tezligi, mashq, mashg'ulot.

СТРУКТУРА ТРЕНИРОВКИ БЕГУНОВ НА СРЕДНИЕ ДИСТАНЦИИ

Каршиев Улугбек Абрай ўғли
 Студент 1 курса магистратуры
 «Азиатского Международного Университета»

Аннотация: сегодня в нашей стране бурно развиваются физическое воспитание и спорт. В данной статье представлены отзывы о структуре подготовки бегунов на средние дистанции в легкой атлетике.

Ключевые слова: легкая атлетика, физическая подготовка, физические качества, анаэроб, аэроб, перерыв, восстановление, техника бега, скорость бега, упражнения, тренировка.

STRUCTURE OF TRAINING FOR MIDDLE DISTANCE RUNNERS

Qarshiyev Ulug'bek Abray o'g'li
 "Osiyo xalqaro universiteti" 1-bosqich magistranti.

Annotation: physical education and sports are rapidly developing in our country today. This article provides feedback on the training structure of middle-distance runners in athletics.

Key words: athletics, physical training, physical qualities, anaerobe, aerobic, break, recovery, running technique, running speed, exercise, training.

O'rta masofaga yugurish – tezlik va chidamlilikni o'zida mujassam etgan engil atletika turi bo'lib, odatda 800 metr, 1500 metr va ba'zan 3000 metr masofalarni o'z ichiga oladi. Ushbu yugurish turlari sprint va uzoq masofaga yugurish orasida bo'lib, sportchilardan nafaqat yuqori tezlik, balki chidamlilik va to'g'ri nafas olish texnikasini talab qiladi. O'rta masofaga yuguruvchilar mashg'uloti tuzilmasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Jismoniy tayyorgarlik	
Yurak-qon tomir tizimini mustahkamlash:	Uzluksiz yugurish (30-60 daqiqa, past va o'rtacha intensivlikda)
Kuch mashqlari:	Oyoq va tana mushaklarini rivojlantirish (skvotlar, burpilar, plankalar, press mashqlari)
Moslashuvchanlik va muvozanat:	Stretching, yoga elementlari
Yugurish texnikasi ustida ishlash	
Yugurish shaklini to'g'rilash:	Qadam uzunligi, qo'l harakatlari
Tezkorlik va koordinatsiya:	Skiping, A-B drill mashqlari
Boshlanish texnikasi:	Start pozitsiyasi va tezlanish
Anaerob va aerob tayyorgarlik	

Interval yugurish:	200-600m kesmalar (tezlikni oshirish uchun)
Fartlek mashqlari:	Tezlikni o'zgartirib yugurish
O'rtacha va uzun masofa yugurish:	3-10 km
Tezkorlikni oshirish:	Qisqa sprintlar (30-100m)
Maxsus mashg'ulotlar	
Yugurishning iqtisodiyligi ustida ishlash	
Balandlik va qiyalikda yugurish	
Oyoq kuchi va chidamliligini oshirish uchun plyometrik mashqlar	
Tanaffus va tiklanish	
Passiv dam olish:	Uyqu va ovqatlanish
Faol tiklanish:	Yengil yugurish, massaj, suzish
Psixologik tayyorgarlik:	Konsentratsiya, nafas olish mashqlari.

O'rta masofaga yuguruvchilar mashg'ulotlarining tuzilishi hamda vosita va usullarini taqsimot tayyorgarligini asosiy omili hisoblanadi.

Shug'ullanuvchilarning aerob imkoniyatlarini oshirish, ularni har tomonlama tayyorgarligini rivojlantirish, sog'liqni saqlash kabi vazifalarni mashg'ulotlar jarayonida xal etiladi. Mashg'ulotlarda maxsus va umum chidamlilikni rivojlantirish, tezkorlik, chaqqonlik, kuch jismoniy sifatlarini oshirishni har xil usullar orqali rivojlantiriladi. Umumiy chidamlilik, jismoniy sifatni 140-150 z/d mobaynida tekis yugurish yoki uzoq muddatli yugurishlar orqali rivojlantirilib boriladi. Tayyorgarlikni birinchi bosqichida Yu.U.T. 150-170 z/d.li fartlek yugurishlar, krosslar hamda tezkorlikni rivojlantirishda qo'l keladigan vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mashg'ulotni olib borishda intervalli usulni bajarish. Misol uchun, tezlanishli 10x200 m. /30-32 sek.+tiklantiruvchi 200 m. Ko'p marotaba bajarilish soni bilan faoliyatdagi dam olish oralig'ini cho'zish kabi usuldan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shiddatli mashqlar yuklamalari 6 ta shiddat zonasidan iboratdir.

Birinchi shiddat zonasi – tiklovchi zona hisoblanadi. Bu zonada asosiy yuklamalardan keyin faol organizmni tiklovchi pedagogik va fiziologik yo'nalishdagi mashg'ulot uslubiyati qo'llanib boriladi. Bunda 1-, 2-shiddat zonalari oralig'ida qon tomir va yurak apparatlarini ish faoliyatlarini va ishlashini tiklaydi.

Ikkinchi shiddat zonasi – quvvatlovchi, ushlab turuvchi shiddat zonasi hisoblanadi. Bu zonada ushlab turuvchi va tiklovchi pedagogik yo'nalishga xos bo'lgan mashg'ulot uslubiyati qo'llaniladi. Bu zonada yugurish, yuqori hajmdagi mashg'ulot uslubiyati bajariladi. Fiziologik yo'nalishdagi quvvat ta'minotining aerob va anaerob hajmli ishlarining natijalari bilan o'zaro aloqadorligi kuzatiladi. Bunda 2-, 3- shiddat zonalarda aerob imkoniyatlarini rivojlantirilib, qon tomir tizimi va muskullar faoliyatini rivojlantiradi.

Uchinchi shiddat zonasi – rivojlantiruvchi zona hisoblanadi. Pedagogik yo'nalishli zona bo'lib, organizmning har tomonlama shakllanishiga va chidamliligini rivojlantiruvchi zona sanaladi. Bu zona hajm bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi. Fiziologik yo'nalishdagi anaero hajmli ish bajarilib, qonda kislorod ishqorini kamaytirishi va loktatni qon bilan reaksiyaga kirishishi hisoblanadi. Yuguruvchining individual xususiyatlarini va jismoniy tayyorgarligiga bog'liq bo'lgan shiddat zonasi hisoblanadi. N.L. Volkovning bergan ma'lumotlarida sportchi yomon tayyorgarlik ko'rgan vaqtda 60-65% yuqori shiddatdan past sport formasi holatidan 85-90% shiddatda bajarishi fiziologik jihatdan ikkinchi shiddat zonasidan bajarishi shiddat tezligini to'rtinchi shiddat zonasida bajarishi bilan xarakterlanadi.

To'rtinchi shiddat zonasi – bu zona foydali va tejamli yugurish zonasi bo'lib, chidamlilikni keyinchalik oshirib borib, tejamli yugurishni shakllantirib borishda kompleks mashqlar yuklamasini bajarish. 10000 m. masofaga yuguruvchi marafonchilar musobaqa jarayonida maxsus jismoniy tayyorgarlikni bu zonada rivojlantirib boradi. Submaksimal darajadagi yurak ish faoliyatini yaxshilashdan iboratdir. Bu zonada har xil tayyorgarlikka ega bo'lgan sportchilarni kislorod iste'mol qilish jarayoni faollashadi. Yaxshi tayyorgarlikka ega

sportchilar kam darajada kislorod iste'mol qiladi. Kislorodga bo'lgan ehtiyoj ortishi va qonda sut kislotasi ortishi ko'rinishi bilan farqlanadi.

Beshinchi shiddat zonasi – submaksimal hisoblanadi bu zonada ish faoliyatini rivojlantiruvchi maxsus tayyorgarlik zonasi sanaladi. Bunda uzoq masofaga yuguruvchilarni yugurish tezligini sezish va yugurish ritmini o'rgatishni takomillashtiradi.

Oltinchi shiddat zonasi – eng yuqori zona. Bu zonaga sportchilar faqatgina musobaqa paytlaridagina chiqishadi.

O'quv mashg'ulot guruhi sportchilarini jismoniy rivojlanganlik darajasi mashg'ulot jarayoni yuklamalarini rejalashtirishda o'ta muxim hisoblanadi. Mashg'ulot yuklamalari taqsimlanishi sportchilarning yoshiga, jinsiga, jichmoniy tayyorgarligiga bog'liqdir. Jismoniy yuklamalarni bajarish, ularni mashq ko'rganlik darajasiga ham bog'liqdir. Biz ilmiy izlanishimizda o'rta masofaga yuguruvchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini maxsus testlar yordamida aniqladik. Unga ko'ra 100 m. masofaga quyidagi 12,8 natija qayd etildi, 200 m. masofaga yugurishda 26,33 natija, 400 m. masofaga yugurishda o'rtacha 56,0 natija ko'rsatishdi. 600 m. masofaga yugurishda 1:29,8 natija ko'rsatdi. Joyidan turib uzunlikka sakrashda 223 sm natija ko'rsatgan bo'lsalar, uch xatlab sakrashda 1166 sm natija qayd etdilar. Tajriba guruhi sinaluvchi o'quvchilari ushbu natijalarni ko'rsatdi.

Xuddi shunday maxsus testlardan Nazorat guruhi sportchilarini jismoniy tayyorgarlik darajasini 1,2-jadvallarda berdik. Jadvallardagi shu olingan natijalar o'rtasidagi farq deyarli bir xil ekani kuzatildi. Murabbiy M.M. Mirsadikovning har ikkala guruh sinaluvchi sportchilar har tomonlama teng ekanligini olib borgan tadqiqotimizda aniqladik.

Dushanba	bir marotaba kross yugurish YU.U.T. 130-150 z/d. 20 <i>daqiq</i> a URM mashqlari, tiklovchi mashqlar 5 <i>daqiq</i> a.
Seshanba	bir maromda yugurish, yugurish oxirida aralash rejimda ish bajarish (aerob - anaerob) 5-6 km. URM 15 <i>daqiq</i> a. Tiklovchi yurish mashqlari.
Chorshanba	kross yugurish bir maromda YUUT 130-150 z/d dan omagan holda. YUUM o'zgarmagan holda ko'rsatilgandan. URM mashqlari 15 <i>daqiq</i> a davomida tiklovchi mashqlar.
Payshanba	dam olish kuni. hammom, sauna.
Juma	3 km. kross yugurish 130-150 z/d. URM 15 <i>daqiq</i> a, tezlashib yugurish 2x100 m., tiklovchi mashqlar.
Shanba	12 km.ga uzoq muddatli yugurish. URM 20 <i>daqiq</i> a, MYuM, oyoqdan oyoqqa yugurish usullari bilan tiklovchi mashqlar.
Yakshanba	dam olish.

Ushbu vosita usullarni ikki-uch hafta davomida takrorlash va to'rtinchi haftada ushbu yuklamalarni kamaytirish sportchi organizmini tiklashiga yaxshi samara berib, mashg'ulot samaradorligini oshiradi. Yuqori malakali sportchilar mashg'ulot uslubiyatlarini tahlil etadigan bo'lsak, ularda mashg'ulot hajmi, shiddati birmuncha yuqori tezlikda, jadallikda olib borilishini ko'rishimiz mumkin. Misol uchun, rossiyalik T. Kozokinaning haftalik mikrotsiklida quyidagi tuzilishni ko'rishimiz mumkin:

Dushanba	12 km. bir maromda yugurish. URM 15 <i>daqiq</i> a.
Seshanba	URM. 4 km. yugurish, 30 <i>daqiq</i> a UJT mashqlar. 50 <i>daqiq</i> a futbol.

Chorshanba	bir maromda 18 km. yugurish.
Payshanba	dam olish.
Juma	bir maromda 9 km. yugurish.
Shanba	6 km. kross, YuUT 150 z/d. URM 15 <i>daqiq</i> a, MYUM 2x60, tez yugurish 4x100 m.
Yakshanba	12 km. kross, YuUT 150 z/d. URM 15 <i>daqiq</i> a.

Demak, yuqori malakali o'rtas masofaga yuguruvchilar mashg'ulotlarida mashg'ulot usullarini sportchi imkoniyatlaridan kelib chiqishi taqazo etiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ko'pgina mualliflar N.G. Ozolin, I.P. Kotov hamda I.T. Efimovlarning fikricha o'rtas masofaga yuguruvchilarning ortda qolishlariga asosiy sabab muayyan tezlikning pastligidir. Masalan, 50-yillarning boshlarida ko'proq yugurish yuklamalari rejimiga ahamiyat beoilar edi. Mualliflar mashg'ulot vositalarini tanlashda etarlicha hajmdagi mashg'ulot yuklamasi berilganda (eng ma'qul tarzda oshirishni ta'minlaydigan vositalarga) ko'proq ahamiyat berish kerak deb hisoblashardi. O'rtas masofaga yuguruvchi Tajriba va Nazoart guruhi tahlil qiladigan bo'lsak, Nazorat guruhida 100 m. masofaga yugurishda o'rtacha 12,9 sek., 200 m. masofaga yugurishda o'rtacha 26,39 sek., 400 m. masofaga yugurishda o'rtacha 56,20 sek., 600 m. masofaga yugurishda o'rtacha 1:29,6 sek., 1000 m. masofaga yugurishda o'rtacha 2:38,9 sek., joydan turib uzunlikka sakrashda 221 sm., joydan turib uch xatlab sakrashda 708 sm., joydan turib besh xatlab sakrashda 1159 sm. natija ko'rsatdilar.

Tajriba guruhi sportchilarining yuqoridagi natijalariga erishishida quyidagi mashg'ulot uslubiyanidan foydalandik:

Dushanba	ertalab - 8 km. tiklovchi kross, YuUT 130 z/d. URM 10 <i>min</i> . MYUM 4x60m. tizzalarni ko'tarib. kechqurun – 10km. ushlab turuvchi kross YUUT 140-150 z/d. URM 10 <i>min</i> . MYUM 4x60m.tizzalarni ko'tarib. 4x100m+100m tezlanib yugurish. 400 m. tiklovchi yugurish.
Seshanba	ertalab - 8 km. tiklovchi kross, YUUT 120-130 z/d. URM 10 <i>min</i> . MYUM 15 <i>min</i> . kechqurun – 3 km. tortuvchi kross. URM 10 <i>min</i> . 4x100m+100m tezlanib yugurish. 3x1000 m. yugurish dam olish oralig'i 3 <i>min</i> . 2 km. tiklovchi yugurish.
Chorshanba	ertalab - 8 km. tiklovchi kross, YUUT 120-130 z/d. URM 15 <i>min</i> . MYUM 10 <i>min</i> . kechqurun – 10 km. tortuvchi kross. YUUT 130-140 z/d. URM 10 <i>min</i> . MYUM 10 <i>min</i> .
Payshanba	ertalab - 6 km. tiklovchi kross, YUUT 120-130 z/d. URM 10 <i>min</i> . MYUM 6 <i>min</i> . 4x100 m+100 m tezlanib yugurish. kechqurun – 4 km. ushlab turuvchi kross. YUUT 145- 150z/d. URM 5 <i>min</i> . MYUM 10 <i>min</i> . 400 m. tiklovchi yugurish. 6x600m. yugurish dam olish oralig'i 3 <i>min</i> . 2 km. tiklovchi yugurish.
Juma	ertalab - 8 km. tiklovchi kross, YUUT 120-130 z/d. URM 10 <i>min</i> .

	kechqurun – 12 km. tortuvchi kross. YUUT 130-140z/d.
Shanba	ertalab - 10 km. tortuvchi kross, YUUT 130-145 z/d. URM 10 min. MYUM 10 min. 4x100 m+100 m tezlanib yugurish. 400 m. tiklovchi yugurish. kechqurun – 6 km. ushlab turuvchi kross. YUUT 130-140z/d. URM 10 min. MYUM 15 min. Futbol 30 min.
Yakshanba	ertalab – dam olish. kechqurun – 1:50,0 sek. ushlab turuvchi kross, YUUT 140-150 z/d. URM 5 min. CHO‘ziluvchanlik mashqlari 20 min.

Bir qator etakchi olimlarning fikrlari va xulosalaridan kelib chiqqan holda hamda yuqoridagi fikrlarni inobatga olib, biz o‘zimizning-yillik tayyorgarlik siklida Tajriba guruhi sportchilari 6952,5 km. umumiy ish hajmi bajargan bo‘lsalar, Nazorat guruhi-yillik siklda 6343 km. umumiy ish hajmi bajarilgan.. lar tayyorlash tajribalarini o‘rganish etibor qaratadiki,-yillik sport tayyorgarligini amalga oshirishga mo‘ljallangan dasturlar taqvim-yiliga mo‘ljallangan bo‘lib, ularda belgilangan mashg‘ulotlar hajmi akademik mashg‘ulotlar bilan bog‘liq yuklamalarga muofiqlashtirilmaydi. Joriy tadqi-qotlar shuni ko‘rsatadiki, bunday holatlar aksariyat umumiy jismoniy yuklamalar xajmini meyoridan oshib ketishiga sabab bo‘lib, pirovordida ish qobiliyatini susayishi va sport natija-larini notekis o‘shishiga olib kelar ekan.

Har bir mashg‘ulot tarkibiga o‘yin-estafeta tarzida ijro etiladigan noanaviy sakrash mashqlari kiritilsa hamda mashg‘ulot yakunida oyoq mushaklari, yurak-tomir va nafas olish faoliyatini tiklovchi relaksion mashqlar joriy etilsa jismoniy va funkstional imkoniyatlar ham, sport natijalari ham jadal suratlar bilan shakllanishi mumkin ekan. Bunday mashqlardan foydalanish afzalligi shu bilan asoslanadiki, birinchidan, yugurish texnikasida tayanchli va tayanchsiz fazalar mavjud bo‘ladi. Yani bir oyoq bilan deysinish (tayanch holat) fazasidan ikkinchi oyoqqa qo‘nish (tayanch holat) fazasigacha tayanchsiz holat yuzaga keladi. Demak, yugurish samaradorligi oyoqlarni bukuvchi va yozuvchi mushaklarini tezkor kuchiga bog‘liq bo‘ladi. Ikkinchidan, mashg‘ulot va musobaqalarda asosiy yuklama avvalo oyoq mushaklari va shu mushaklar bioenergetikasini taminlovchi yurak-tomir hamda nafas olish organlariga tushadi. Binobarin, har bir mashg‘ulot yakunida antistatik holatda (orqa bilan yotib, oyoqlarni vertikal ko‘targan holatda) bajariladigan relaksastion va “ventilyatsion” (O2 va SO2 almashinuvi) mashqlarni qo‘llay borish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Andris E.R., Quدراتov R.Q. Yengil atletika. – T.: 1998. – 124 b.
2. Andris E.R. Upravleniye trenirovkoy v bege na 100 metrov. – T.: 1990. – 109 s.
3. Jilkin A. I., Kuzmin V. S., Sidorchuk Ye. V. Legkaya atletika (Ucheb. posobiye dlya stud. vissh. ucheb. zavedenii. – M.: Izdatelskiy sentr “Akademiya”, 2009. - 464
4. Shakirjanova K.T. Yengil atletikada sport mashg‘ulotlari asoslari. – T.: 2008. 72
5. Abdukhamidov, R.N. (2021). Improving psychophysiological training of teenage boxers with the help of improvised means of games. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 1(1.5 Pedagogical sciences).
6. Problems and Solutions of Directing Students to Scientific Activity: Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT. ISSN: 2792 – 1883 Volume 3 No. 3 for the month of March-2023. 42-47-pages.
7. Innovative techniques for developing physical qualities of preschoolers through selected special exercises: Journal “MANAGEMENT IN EDUCATION” Aug 2024 in volume 6, issue 2. 457-468- pages.

DETERMINING THE PRE-COMPETITIVE PSYCHOLOGICAL STATE OF VOLLEYBALL PLAYERS

Kurbonov Hakim Khaidarkulovich

*Researcher at the Bukhara State Pedagogical Institute***Annotation**

The pre-competition psychological state of an athlete is an important factor determining the success of performance in competitions. In volleyball, as a dynamic and collective sport, psycho-emotional stability and the ability to mobilize play a key role. This article examines the main components of the pre-competition state of volleyball players, the factors influencing it, as well as diagnostic and correction methods. The influence of anxiety, motivation and the level of excitement on game activity, as well as psychological preparation strategies aimed at improving athletic performance are analyzed.

Keywords: pre-competition state, volleyball, sports psychology, anxiety, sports training.

Аннотация

Предсоревновательное психологическое состояние спортсмена является важным фактором, определяющим успешность выступления в соревнованиях. В волейболе, как в динамическом и коллективном виде спорта, психоэмоциональная устойчивость и способность к мобилизации играют ключевую роль. В данной статье рассматриваются основные компоненты предсоревновательного состояния волейболистов, факторы, влияющие на него, а также методы диагностики и коррекции. Анализируется влияние тревожности, мотивации и уровня возбуждения на игровую деятельность, а также стратегии психологической подготовки, направленные на повышение спортивной результативности.

Ключевые слова: предсоревновательное состояние, волейбол, психология спорта, тревожность, спортивная подготовка.

Introduction

An analysis of the literature has revealed specific features of volleyball, such as the extreme nature of the game conditions, the change in the states of each player, and the dynamics of the mental states of the team as a whole. At the same time, a number of pre-competition states are distinguished: optimal mental state, the state of athletic form, success, failure, emotional excitement, anxiety, uncertainty, lack of confidence, jitters, fear, tension, fatigue, exhaustion, overfatigue, apathy, mental satiety, anxiety, pre-competition stress, fear, etc. It should be taken into account that under these conditions, an athlete must qualitatively demonstrate the following functions: orientation in a rapidly changing environment, extrapolation of the course of events, the choice of the right decisions in individual situations, the ability to objectively assess one's mental state and control its course [5]. Mental states, like other psychological categories of personality, are classified as fundamental mental phenomena, characterized by a set of mental characteristics. It should be noted that, unlike mental processes that have a beginning and an end, or mental properties that can be manifested in certain situations, a mental state acts as a holistic, constantly present and dynamically changing essence of mental activity [1]. The set of mental features of the state includes three components - physical (bodily-motor), characterizing muscle sensations, motor activity; cognitive (mental, cognitive), characterizing the emotional attitude to the competition; emotional, characterizing the direction of the athlete's thinking [2]. The following methods were used to study the mental states of female volleyball players: 1. Self-assessment of the pre-start state by three components (I.P. Volkov, 2002). It is important

for both the athlete and the coach to know the subjective state of an athlete based on an assessment of his sensations, feelings, thoughts in order to correct one or another component of the state. [2]. 2. Methodology for studying an athlete's attitude to the upcoming competition (Yu.L. Khanin, 1980). This test determines 4 indicators: confidence indicator, indicator of perception of the capabilities of competitors, indicator of desire to participate in the competition and the significance of the competition, indicator of subjective perception of the assessment of the athlete's capabilities by other people. In this case, the coach can control both the attitude to the upcoming competition and the level of pre-competition anxiety.

Sports competitions are not only a physical but also a psychological test for athletes. In volleyball, as a team sport, not only individual technical and physical skills are important, but also the ability to cope with psychological pressure. The pre-competition state of athletes can both contribute to their successful performance and cause mistakes and a decrease in performance.

The psychological state before competitions is a set of cognitive, emotional and physiological reactions that can be both positive (fighting spirit, confidence, mobilization) and negative (excessive excitement, stress, anxiety). Research in the field of sports psychology shows that effective management of this state is one of the key factors for success in competitions.

The purpose of this article is to analyze the main aspects of the pre-competition psychological state of volleyball players, identify its impact on sports activities and consider methods for its correction.

1. Theoretical foundations of pre-competition psychological state

1.1 Definition and structure of the pre-competition state

Pre-competition psychological state is a temporary psycho-emotional reaction of an athlete to upcoming competitions, characterized by changes in the level of anxiety, motivation, concentration and physiological parameters.

It includes several main components:

- **Emotional (affective)**– level of anxiety, fear, self-confidence.
- **Cognitive (cognitive)**– the ability to concentrate and analyze tactical moments.
- **Physiological**– level of arousal, changes in the cardiovascular and respiratory systems.
- **Behavioral**– manifestations in the form of motor activity, gestures, vocalization (for example, a battle cry).

1.2. The influence of pre-competition state on performance

Pre-competition mood can have both positive and negative effects on athletes' performance. According to the Yerkes-Dodson law, there is an optimal level of arousal that results in maximum performance. Too little motivation leads to apathy, and too much arousal leads to panic and mistakes.

Volleyball players with high anxiety levels are more likely to make mistakes in receiving serves, passing and attacking shots, while athletes with high stress tolerance maintain concentration and confidence in critical moments of the game.

2. Factors influencing the pre-competition condition of volleyball players

2.1. Individual characteristics of the athlete

Each player reacts differently to the stress of competition. Factors that determine this reaction are:

- Type of nervous system (balance, mobility of mental processes).
- Experience of participating in competitions.
- Skill level (professional athletes have better control over their emotions).
- Self-esteem and self-confidence.

2.2. External factors

• The importance of the competition (the higher the level of the tournament, the greater the pressure).

- Support of the team, coach, fans.
- Conditions for holding the match (home or away court).
- Tactical preparation and level of preparation of the opponent.

3. Methods of diagnostics of pre-competition condition

The following methods are used to assess the psychological state of volleyball players before a match:

3.1. Psychological testing

• **Spielberger Anxiety Scale**– measures the level of situational and personal anxiety.

• **Questionnaire "Well-being, activity, mood" (SAM)**– evaluates the current psychophysiological state.

• **Bassa-Darka technique**– reveals the level of aggressiveness, which is important for assessing the fighting spirit.

3.2. Physiological methods

- Measuring heart rate and heart rate variability.
- Analysis of the level of cortisol (stress hormone) in the blood.
- Electroencephalography (EEG) to assess brain activity.

4. Methods of correction of pre-competition state

4.1. Psychological preparation

• **Auto-training**– relaxation and self-hypnosis methods.

• **Visualizing Success**- representation of ideal game actions.

• **Psychological adjustment of the team**– joint rituals, words of support, choreography of victorious behavior.

4.2. Physiological regulation

- Breathing exercises (deep breathing, 4-7-8 method).
- Meditation and yoga for stress reduction.
- Contrast shower and massage to normalize the nervous system.

4.3. Tactical training

- A detailed analysis of the game strategy.
- Analysis of the opponent's strengths and weaknesses.
- Using game situations in training.

Table 1. Main aspects of pre-competition psychological state of volleyball players

Aspect	Description	Positive influence	Negative influence	Correction methods
Emotional	Emotions experienced before the match (excitement, joy, fear).	Confidence, fighting spirit.	Panic, excessive anxiety, fear of failure.	Auto-training, breathing exercises, self-hypnosis.
Cognitive	Ability to concentrate and analyze the game.	Clarity of thinking, quick reaction.	Loss of attention, slow reaction.	Meditation, visualization of success, tactical analysis.

Aspect	Description	Positive influence	Negative influence	Correction methods
Physiological	Changes in the body (heart rate, adrenaline, cortisol).	Optimal level of arousal.	Increased stress, tremors, fatigue.	Contrast shower, massage, breathing techniques.
Behavioral	External manifestations of the condition (gestures, voice, movement).	Energetic, active interaction with the team.	Tightness, nervousness, aggressiveness.	Team rituals, coach support, positive motivation.

Conclusion

The pre-competition psychological state of volleyball players has a significant impact on their performance. The optimal level of motivation, concentration and emotional state allows athletes to demonstrate a high level of play. Understanding the factors that influence the pre-competition state, as well as the use of effective methods for its correction, allows you to minimize the negative impact of stress and improve athletic achievements.

Mental preparation should be an integral part of the training process, helping volleyball players manage emotions, reduce anxiety and maintain self-confidence throughout the game.

Literature

1. Andrusenko L. B. Psychological preparation of athletes for competitions // Theory and practice of physical education. – 2015.
2. Morozov A. A. Psychology of sports activity. – Moscow: Sovetsky Sport, 2012.
3. Platonov V. N. The system of training athletes in Olympic sports. – Kyiv: Olympic Literature, 2015.
4. Rudik P. A. Psychology of sports. – Moscow: Academy, 2010.
5. Khanin Yu. L. Psychological aspects of pre-competition tension // Questions of Psychology. – 2000.

INKLYUZIV TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING XORIJIY PEDAGOGIK AMALIYOTDAGI MODELLARI

Sultonova Zarina Uchqun qizi

*Buxoro Innovatsiyalar universiteti Pedagogika
nazariyasi va tarixi yo'nalishi 2-kurs magistratura talabasi*

Annotasiya: Ushbu maqolada xorijda inklyuziv ta'lim tizimining turli ko'rinishlari, Turli mamlakatlarda imkoniyati cheklangan bolalarning ko'p bosqichli maxsus ta'lim turlari, Imkoniyati cheklangan bolalarni umumiy ta'lim muassasalari ta'lim jarayonlari, integrativ ta'lim g'oyalari, xorijiy davlatlarning ta'lim siyosati, segregatsiya, meynstriming, integrativ ta'lim, haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, Segregatsiya, Meynstriming, Integrativ ta'lim, Yunesko, BMT, korreksiya, reabilitatiya.

Аннотация: В данной статье представлены различные взгляды на систему инклюзивного образования за рубежом, многоуровневые виды специального образования для детей с ограниченными возможностями в разных странах, образовательные процессы общеобразовательных учреждений для детей с ограниченными возможностями, идеи интегративного образования, зарубежная информация образовательная политика государств, сегрегация, мейнстриминг, интегративное образование.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, Сегрегация, Meynstriming, Интегративное образование, ЮНЕСКО, ТКМ, коррекция, реабилитация.

Annotation: In this article, different views of the inclusive education system of abroad, multi-level types of special education for children with disabilities in different countries, educational processes of general educational institutions for children with disabilities, ideas of integrative education, foreign information is given about the education policy of the states, segregation, mainstreaming, integrative education.

Keywords: Inclusive education, segregation, mainstreaming, integrative education, UNESCO, UN, correction, rehabilitation.

Imkoniyati cheklangan bolalarni umumiy ta'lim muassasalari ta'lim jarayonlariga tadbiq etish pedagogik amaliyotning asosi - o'zgaruvchan ta'lim modellarning paydo bo'lishiga olib kelgan integrativ ta'lim g'oyalari hisoblanadi.

Umumiy ta'lim muassasalari tizimida imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim jarayoniga joriy etilishi ushbu toifadagi bolalarni o'qitishning turli texnologiyalarini ishlab chiqishga olib keldi.

Xorijiy davlatlarning ta'lim siyosati, segregatsiya, meynstriming, integrativ ta'lim, inklyuziv ta'lim deb nom olgan, imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalash va o'qitishni muayyan yondashuvlarini ajratib ko'rsatadi.

"Segregatsiya" - nogiron bolalarni maktab-internatlar va psixiatriya shifoxonalari bo'limlari kabi ixtisoslashtirilgan muassasalarda o'qitish. U yoki bu sabablarga ko'ra o'quv fanlarini o'zlashtira olmaydigan bolalar, ularga qo'yilgan tashxis asosida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga o'tkazilishi mumkin. Segregatsiya imkoniyati cheklangan toifasidagi bolalarni izolyatsiya qilishning bir turi. Ko'pgina mamlakatlarda, shu jumladan Rossiyada

bugungi kunda yosh bolalar uchun segregatsion ta'lim mavjud bo'lib, unda bolalar internat tipidagi maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim olishadi.

Turli mamlakatlar o'zlarining ko'p bosqichli maxsus ta'lim tizimlariga ega. Masalan, Gollandiyada imkoniyati cheklangan bolalar yoshlariga munosib jismoniy va aqliy rivojlanishni olishadi. 3 yoshga to'lgach esa, bu bolalarni ta'lim olishlari uchun maxsus muassasaga jo'natiladi. U erda ularga ta'lim bilan birga terapevtik-reabilitatsion yordam ham ko'rsatiladi. Gollandiyadagi segregatsion ta'limning asosiy tamoyili – imkoniyati cheklangan bolani sog'lom tengdoshlari bilan birga ta'lim olishidir.

Daniyada ham kechayu-kunduz bolalar istiqomat qiladigan maktabgacha muassasalar mavjud bo'lib, u erda ta'lim bilan bir qatorda rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarga korreksion va reabilitatsion yordam ko'rsatiladi.

“Meynstriming” – bu maktabgacha ta'lim muassasasidagi imkoniyati cheklangan bolalarni turli xil tadbirlarda, bayramlarda sog'lom tengdoshlari bilan muloqot qilishda qisman tadbir etishni nazarda tutadi. Bunday yondashuv ta'limiy maqsadlardan ko'ra ko'proq imkoniyati cheklangan bolalarda ijtimoiy aloqalarni oshirish hisoblanadi. Shvetsiya va Norvegiya maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maxsus tashkil etilgan guruhlar bo'lib, turli toifadagi bolalar uchun bayram, tadbir va o'yinlarda ishtirok etish imkoniyatini beradi.

Meynstriming kichik yoshdagi bola tarbiyasi va rivojlanishining eng yaxshi vositasi bo'lib, bolalarda ijtimoiy rivojlanish, o'ziga bo'lgan ishonch, hamda tolerant munosabatni rivojlanishiga xizmat qiladi. Ammo bolalar o'rtasidagi bunday munosabatlar bir tadbir yoki bayram doirasida qisqa muddatli bo'lganligi tufayli, bolalarning rivojlanishi va tarbiyasi uchun etarli hisoblanmaydi, rasmiy va vaqtinchalik xarakterga ega bo'ladi.

“Integrativ ta'lim” klassik maxsus ta'lim tizimidan ajralib chiqqan birinchi ta'lim turi bo'lib, har bir insonning o'ziga xos farqlari va imkoniyatlarini hisobga oladi. Ta'limning bu turi imkoniyati cheklangan bolalarni umumiy ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiyalanishlarini nazarda tutadi. Integratsiya g'oyasi normallashtirish konsepsiyasiga asoslanadi.

Bu konsepsiya birinchi marotaba o'tgan asrning o'rtalarida skandinavialik olim N.E.Benk-Mikkelsen tomonidan taklif etilgan. Konsepsiyaning asosiy qoidasi imkoniyati cheklanganlarni ijtimoiy hayot sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan. Bu qoida shuni anglatganki, imkoniyati cheklangan bolaning asosiy ehtiyojlari uning rivojlanishini rag'batlantiruvchi mexr-muxabbatga ehtiyoj, atrof-muhitni qabul qilish bo'lib hisoblanadi. Ushbu qoidaning yana bir muhim jihatiki shuki, bolalarda rivojlanish buzilishining og'irligidan qat'iy nazar ta'lim olish imkoniyatining mavjudligidir.

Avstriyada imkoniyati cheklangan bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotida so'g'lom bolalar bilan bir guruhda ta'lim olishlari mumkin. Bunda davlat organlari, tashxis asosida, ta'lim tarbiya jarayonini nazorat qiluvchi javobgar mutaxassisni tayinlashadi. Ba'zi hollarda, bolaning o'z yoshi guruhidagi rivojlanish darajasiga mos kelishiga qara bola bolalar bog'chasidan chiqarib yuborilishi ham mumkin.

Shvetsiyada maxsus ta'lim tashkilotlari mavjud bo'lib, ularda maxsus integrativ yo'nalishdagi guruhlar mavjud.

Buyuk Britaniya integrativ modeli bu turdagi ta'lim turining eng yorqin namumasidir. Pedagoglar imkoniyati cheklangan bolalar bilan 9 oylikdan boshlab, aniq tashxis qo'yish maqsadida emas, balki mavjud potensial imkoniyatlarini rivojlantirish maqsadida

mashg'ulotlarni boshlashadi. Keyinchalik bola umumta'lim tashkilotiga yo'naltiriladi va u erda individual tuzilgan dastur asosida ta'lim tarbiya berish uchun pedagog-tyutorlarga biriktiriladi.

Yuqorida aytib o'tilgan mamlakatlar integrativ ta'limni tahlil qilish natijasida aniqlandiki, bunday turdagi ta'lim tarbiya tizimidagi tashkilotlarda imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitishda majmuaviy qonun-qoidalar mavjud. Imkoniyati cheklangan bolalar maxsus pedagoglar nazorati ostida teng imkoniyatlar asosida so'g'lom bolalar qatorida ta'lim jarayoniga tadbiq etiladi yoki umumiy ta'lim guruhlarida sog'lom tengdoshlari bilan birga tahsil oladigan maxsus guruhlar yaratishadi.

Integrativ ta'lim 1980-yillarda Yevropa va Qo'shma Shtatlarda ta'lim reformasi yo'lida paydo bo'lib, imkoniyati cheklangan va jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan insonlarni kundalik hayotdagi imkoniyatlarini sezilarli oshishiga xizmat qildi. Maxsus ta'lim bosqichma-bosqich, umumiy ta'lim reformasida ishtirok etishni boshladi. O'sha paytda nogiron bolalarni tarbiyalashda erishilgan yutuqlar e'tibordan chetda qolganiga qaramay, ushbu toifadagi bolalarga nisbatan ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar masalasi ko'tarildi. Shunday qilib, inklyuziya umumiy ta'lim reformasi hisobida o'z chegaralarini kengaytirishi natijasida maxsus ta'lim tizimida ulkan o'zgarishlarni yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Senegal davlatining Dakar shaxrida bo'lib o'tgan YUNESKO ning Xalqaro ta'lim forumi, inklyuziv ta'limning eng universal "barcha bolalar uchun istisnosiz ta'lim olishdan teng foydalanishni nazarda tutuvchi, ularning ijtimoiylashuvi va butun jamiyat hayotida to'liq ishtirok etishiga yordam beradigan yaxlit hodisa" ta'rifini bergan.

Germaniyada inklyuziv ta'limni tashkil etishning birinchi tajribasi o'tgan asrning 70-yillariga to'g'ri keladi va asosan maktabgacha ta'lim muammolariga taalluqlidir. 1984-1987-yillarga kelib, Davlat pedagogika institutida imkoniyati cheklangan bolalar uchun "Nogiron bolalarga umumiy yordam" modeli shakllantirildi. Ushbu pedagogik tadqiqotning maqsadi, bolalar bog'chalarida nogiron bolalarning integratsiyalashuvini rivojlantirish tamoyillarini amalga oshirish uchun kontsepsiya va o'zgaruvchan modelni ishlab chiqish va uning samaradorligini baholash edi. Ushbu model keyinchalik takomillashtirildi va hozirda Bavariyada inklyuziv erta bolalik ta'limi uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Ushbu muassasalar ishida ko'plab mezonlar hisobga olindi, masalan, alohida shartlar mavjudligi (guruh hajmi, ishtirokchilar, ularning munosabatlari), professor-o'qituvchilarning malakasi belgilangan vazifalarga mos kelishi, tibbiy yordam ko'rsatiladishi. pedagogik jarayon tashkil etilishi, bolalar va o'qituvchilar ota-onalar bilan o'zaro aloqada bo'lishi, ijtimoiy va maishiy ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha ishlar tashkil etilganligi va h.k.

Keyinchalik, 2009-yilda BMTning nogironlar huquqlari to'g'risidagi bitimini ratifikatsiya qilish bilan Germaniya asosiy qonunlarning qiyinchiliklariga duch keldi, turli davlatlardagi ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari uchun yagona qonunchilik bazasi, ya'ni har bir shtatda inklyuziv ta'lim farq qilishi mumkinligi yuzaga keladi. Misol uchun, Saksoniya va Saarlandda qonun muayyan shartlar ostida korreksion muassasalarida ta'lim olishni tavsiya qiladi ammo, Gamburgdan tashqari shtatlarda inklyuziv ta'limga faqat ma'lum shartlar bajarilgan taqdirdagina ruxsat beriladi. Inklyuziv ta'lim va ta'limning ustuvorligi to'g'risida yagona bir to'xtam yo'qligiga qaramay, ta'limda bunday yondashuvga talab kuchli edi.

Inklyuziv ta'limni tashkil etish modellari boshqa Yevropa mamlakatlarida ham o'z qo'llanilishini topdi, ularni amalga oshirish xususiyatlari birinchi navbatda, har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari, ta'lim an'analariga bog'liq.

Buyuk Britaniya pedagoglari R.Bond, Ye. Kastagneralar nogiron bolalarni umumiy ta'lim tizimiga kiritish samaradorligi ma'lum texnologiyalardan foydalanish va o'qituvchining yordamiga bog'liqligini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, imkoniyati cheklangan bolalarni nafaqat o'qituvchilar tomonidan tyutorlik yordami, balki normal rivojlanayotgan tengdoshlari ham qo'llab-quvvatlashi juda muhimdir. Ushbu modeli "Guruhdagi tyutorlik" (CWPT - Class - Wide Peer Tutoring) yoki "o'zaro yoshdagi tyutorlik" deb nomlanadi.

Janubiy Koreyalik o'qituvchilar inklyuziv ta'limni tashkil etishning turli strategiyalari bo'yicha Amerika tadqiqotlariga asoslanib, muayyan shartlar bajarilgan taqdirda muvaffaqiyatli bo'ladigan quyidagi qo'shma ta'lim imkoniyatlarini taklif qiladilar.:

- nogiron bolalarga o'quv jarayonida hamroh bo'ladigan maxsus tayyorlangan o'qituvchini tayinlash;
- nogiron bolalar turli ta'lim fanlarini o'zlashtirish jarayonida bir o'qituvchidan boshqasiga o'tadigan individual o'quv maydonini tashkil etish.;
- guruh mashg'ulotlari, bunda o'qituvchi rivojlanish buzilishlarining mavjudligi yoki yo'qligi asosida har bir bolalar guruhi bilan ish strategiyasini belgilaydi.;
- bir o'qituvchiga kamroq nogiron bolali guruhlarda o'qitish imkoniyatini o'z ichiga olgan intensiv ta'lim;
- guruhli o'qitish, individual darslarni olib boradigan o'qituvchi boshqa o'qituvchilar bilan o'zgarganda

Shvetsiya, Gretsiya va Fransiya ta'lim tashkilotlarida imkoniyati cheklangan bolalar vaqtinchalik pedagogik faoliyat asosida ta'limga jalb etiladi. Ushbu mamlakatlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida imkoniyati cheklangan bolalar bilan faoliyat olib boruvchi pedagoglarni qo'llab-quvvatlovchi yuqori malakali mutaxassislar jamoasi ko'zda tutilgan.

Daniya, Gretsiya, Irlandiya va Belgiyada inklyuziv ta'lim uchun maxsus tashkilot mavjud emas. Ta'lim muassasalari nogiron bolalarni qisman pedagogik o'zaro ta'sirga ega bo'lgan maxsus guruhlarga integratsiyalashuvini tashkil qiladi. Biroq, bu mamlakatlarda inklyuziv ta'limni amalga oshirish uchun alohida sharoitlar mavjud emas.

Shuni ta'kidlash joizki, ilgari inklyuziv ta'lim integratsiya asosida ko'rib chiqilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib, imkoniyati cheklangan bolani shunchaki normal bolalar bilan bir maktabgacha ta'lim tashkiloti yoki maktabga biriktirish emas. Inklyuziyani tashkil etishning shakli – inklyuziv ta'limni joriy etish vazifalarini muvaffaqiyatli hal etadigan sharoitlarni yaratish va integratsiyalashdir. Shuni aytib o'tish lozimki, “integratsiya” va “inklyuziya” tushunchalari sinonimlar sifatida ta'kidlanib, buni nafaqat nazariy tadqiqotlarda, balki barcha uchun teng imkoniyatli sharoit yaratilmagan, inklyuziv ta'limning tashkil etishni etarlicha sharoitlariga amal qilinmagan amaliyotda ham uchratish mumkin.

Yuqoridagi ma'lumotlarni taqooslagan holda quyidagicha xulosaga kelish mumkin: integratsiyalashgan ta'lim odatdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti sharoitida rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar va ularning normal rivojlanayotgan tengdoshlarining mavjudligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lim, umumiy ta'lim muhitida ta'lim jarayonini tizimli ravishda amalga oshirishni, shu jumladan ta'lim jarayoni ishtirokchilarining ehtiyojlarini hisobga olishni, bolalarning muvaffaqiyatli moslashishi uchun atrof-muhitni to'liq jihozlashni va yana ko'p narsalarni, alohida ehtiyojli bolaning tegishli sharoitlarda moslashishini ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Xorijiy mamlakatlarda inklyuziv tajribani qo'llash imkoniyatlarini o'rganar ekanmiz, bu boradagi eng rivojlangan davlatlar Kanada, Buyuk Britaniya, Ispaniya, Italiya ekanligini ta'kidlash mumkin. Buyuk Britaniyada 1981-yilda nogiron bolalarni umumiy maktablarda o'qitish to'g'risida qonun qabul qilindi va inklyuziv ta'lim ta'lim dasturining bir qismiga aylandi. Inklyuziv ta'limni ta'minlovchi Britaniya bolalar bog'chalari va maktablari ommaviy ta'lim muassasalaridan, bolalarni tarbiyalash va o'qitish uchun zarur jihozlar bilan zarur shart-sharoitlarni yaratishi bilan farq qiladi; turli nogiron bolalar bilan ishlash uchun o'qituvchilar va mutaxassislar tayyorlanadi, mutaxassis va pedagoglar maxsus tayyorgarlikdan o'tishadi, imkoniyati cheklangan bolalar uchun tayyorlangan yordamchilar ajratiladi. Inklyuziv ta'limni ta'minlovchi Britaniya bolalar bog'chalari va maktablari ommaviy ta'lim muassasalarida bolalarni tarbiyalash va o'qitish uchun zarur jihozlar bilan zarur shart-sharoitlarni yaratishi bilan farq qiladi; turli nogiron bolalar bilan ishlash uchun o'qituvchilar va mutaxassislar tayyorlanadi; Individual dasturlar ishlab chiqilmoqda. Zaxira markazlari bilan hamkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Bu muassasalarning vazifalari pedagoglarni o'qitish va qayta tayyorlah, o'z vaqtida maslahatlar berish va yordamdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qo'ldoshev, Q. (2020). *Maxsus ta'lim: inklyuziv ta'limning asoslari*.
2. Qosimova, M. S. (2019). *Nogironligi bo'lgan bolalar ta'limida inklyuziv yondashuv*.
3. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim Vazirligi (2019). *Inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha milliy strategiya*. "Ta'lim va inklyuziya" jurnali.
4. Шамова, Т.И., Давыдов, В.В. (2019). *Современные подходы к инклюзивному образованию*.

O'ZBEKISTONDA MUSTAQILLIKDAN KEYINGI SPORT SIYOSATI VA JISMONIY TARBIYA TIZIMINING RIVOJI

Rajabova Umida O'ktam qiz

*Buxoro davlat pedagogika instituti magistri***Annotatsiya**

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishganidan so'ng sport va jismoniy tarbiya sohasida amalga oshirilgan islohotlar, rivojlanish bosqichlari va yutuqlari haqida so'z yuritiladi. Mustaqillik-yillarida sportni rivojlantirish, jismoniy tarbiyani takomillashtirish, zamonaviy sport infrastrukturasini yaratish, xalqaro musobaqalarda ishtirok etish va natijalarga erishish borasida amalga oshirilgan ishlar tahlil qilinadi. Shuningdek, davlat siyosatining ushbu sohaga ta'siri, qabul qilingan qonun va qarorlarning ahamiyati ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston sport siyosati, jismoniy tarbiya tizimi, mustaqillik-yillari sporti, sport infratuzilmasi, xalqaro musobaqalar, olimpiya o'yinlari, milliy sport turlari, yoshlar sporti, davlat dasturlari, sport qonunchiligi, sog'lom turmush tarsi, ommaviy sport.

Аннотация

В статье рассматриваются реформы, этапы развития и достижения в сфере спорта и физической культуры в Республике Узбекистан после обретения ею независимости. Будет проанализирована работа, проведенная за годы независимости по развитию спорта, совершенствованию физического воспитания, созданию современной спортивной инфраструктуры, участию в международных соревнованиях и достижению результатов. Также будет рассмотрено влияние государственной политики в этой сфере, а также значимость принятых законов и решений.

Ключевые слова: Спортивная политика Узбекистана, система физического воспитания, спорт лет независимости, спортивная инфраструктура, международные соревнования, Олимпийские игры, национальные виды спорта, детско-юношеский спорт, государственные программы, спортивное законодательство, здоровый образ жизни, массовый спорт.

Annotation

The article examines reforms, stages of development and achievements in the field of sports and physical culture in the Republic of Uzbekistan after its independence. The work carried out over the years of independence on the development of sports, improvement of physical education, creation of modern sports infrastructure, participation in international competitions and achievement of results will be analyzed. The influence of state policy in this area, as well as the significance of adopted laws and decisions will also be considered.

Keywords: Sports policy of Uzbekistan, physical education system, sports of the years of independence, sports infrastructure, international competitions, Olympic Games, national sports, children's and youth sports, state programs, sports legislation, healthy lifestyle, mass sports.

Kirish

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sport va jismoniy tarbiyani rivojlantirishga qaratildi. Bu borada hukumat tomonidan qator hujjatlar qabul qilindi, sport infratuzilmasi mustahkamlandi va xalqaro maydonda O'zbekiston sportchilari yuksak natijalarga erishishdi. Mustaqillik-yillarida sport faqatgina sog'lom

turmush tarzi vositasi emas, balki davlat nufuzini oshirish omillaridan biri sifatida ham ko‘rilmoqda.

Sport va jismoniy tarbiya tizimini rivojlantirishga qaratilgan dastlabki islohotlar

Mustaqillikning dastlabki-yillarida sport sohasini rivojlantirishga qaratilgan bir nechta muhim qarorlar qabul qilindi. 1992-yilda O‘zbekiston Milliy Olimpiya Qo‘mitasi tashkil etildi va mamlakat Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi (XOQ) tomonidan rasman tan olindi. Bu esa O‘zbekiston sportchilari uchun xalqaro miqyosda mustaqil ishtirok etish imkonini berdi.

Shuningdek, 1997-yilda "Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida"gi qonun qabul qilinib, ushbu sohani huquqiy asosda tartibga solish yo‘lga qo‘yildi. Davlat tomonidan sportni rivojlantirish, aholi orasida jismoniy faollikni oshirish va sport inshootlarini modernizatsiya qilish borasida keng ko‘lamli ishlar boshlandi.

Sport infratuzilmasining shakllanishi va rivojlanishi

Mustaqillik-yillarida sport infratuzilmasi jadal rivojlantirildi. Mamlakatda yangi stadionlar, sport majmualari va olimpiya o‘quv markazlari qurildi. Xususan, Toshkent, Samarqand, Andijon, Buxoro va boshqa yirik shaharlarda zamonaviy sport obyektlari barpo etildi.

2000-yillardan boshlab O‘zbekistonda sport maktablari va akademiyalarining soni ortdi. Respublika miqyosida sportning turli yo‘nalishlarini rivojlantirish maqsadida maxsus federatsiyalar tashkil etildi. Hozirgi kunda futbol, boks, kurash, dzyudo, gimnastika va boshqa sport turlari uchun maxsus tayyorgarlik markazlari faoliyat yuritmoqda.

Xalqaro sport maydonida O‘zbekistonning muvaffaqiyatlari

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, xalqaro sport maydonida faol ishtirok eta boshladi. 1996-yil Atlanta Olimpiadasida O‘zbekiston sportchilari ilk bor mustaqil jamoa sifatida qatnashib, olimpiya o‘yinlarida o‘z bayrog‘i ostida ishtirok etdilar. Ushbu musobaqada bokschi Karim Tulaganov va dzyudochi Armen Bagdasarov bronza va kumush medallarini qo‘lga kiritib, O‘zbekiston sport tarixida yangi sahifa ochdilar.

Keyingi-yillarda O‘zbekiston sportchilari boks, dzyudo, erkin kurash, og‘ir atletika va boshqa sport turlarida yuksak natijalarga erishib, xalqaro maydonda mamlakatimiz obro‘sini yuksaltirishdi. Masalan, 2016-yil Rio-de-Janeyro Olimpiadasida Hasanboy Do‘smatov oltin medalni qo‘lga kiritib, Olimpiya chempioniga aylandi. 2021-yil Tokio Olimpiadasida esa O‘zbekiston sportchilari 3 ta oltin, 2 ta kumush va 2 ta bronza medalini qo‘lga kiritishdi.

Bolalar va yoshlar sportini rivojlantirish

Mamlakatda bolalar va yoshlar sportini rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilgan. 2002-yilda "Umid nihollari", 2004-yilda "Barkamol avlod", 2005-yilda esa "Universiada" sport o‘yinlari tashkil etilib, yoshlar o‘rtasida sportga bo‘lgan qiziqish yanada oshirildi. Ushbu sport musobaqalari har-yili o‘tkazilib, yosh sportchilarni aniqlash va ularni yuksak darajada tayyorlashga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, "Milliy sport turlari va xalq o‘yinlarini rivojlantirish" dasturi doirasida milliy sport turlari, xususan, kurash, belbog‘li kurash, tosh ko‘tarish va ot sporti ham rivojlantirilmoqda.

Sport sohasidagi davlat siyosati va qonunchilik bazasi

Sport sohasida samarali boshqaruvni yo‘lga qo‘yish maqsadida davlat tomonidan qator hujjatlar qabul qilindi. 2017-yilda "Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida"gi yangi tahrirdagi qonun qabul qilinib, sport va jismoniy tarbiya tizimini yanada takomillashtirish maqsad qilib qo‘yildi.

Shuningdek, Prezident qarorlari asosida Olimpiya sport turlarini rivojlantirish, professional sportchilarni tayyorlash va milliy sport turlarini ommalashtirishga yo‘naltirilgan strategiyalar ishlab chiqildi.

Kelajak istiqbollari va rivojlanish yo‘nalishlari

Kelajakda sport va jismoniy tarbiya tizimini yanada rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish zarur:

- 1. Sport infratuzilmasini kengaytirish va modernizatsiya qilish**
- 2. Xalqaro sport musobaqalarida ishtirok etish va natijalarni yaxshilash**
- 3. Bolalar va yoshlar sportiga e'tiborni oshirish**
- 4. Milliy sport turlarini rivojlantirish va ommalashtirish**
- 5. Texnologiyalarni sport sohasiga joriy etish va zamonaviy metodikalarni qo'llash**

O'zbekiston hukumati tomonidan sport sohasiga qaratilgan islohotlar va strategiyalar mamlakatni kelgusida sport davlati sifatida dunyoga tanitish imkoniyatini beradi.

1. O'zbekiston sport siyosatining asosiy tamoyillari

Mustaqillik-yillarida qabul qilingan qonunlar, qarorlar va davlat dasturlarining tahlili. Sportni qo'llab-quvvatlashning davlat darajasidagi yo'nalishlari, jumladan, milliy federatsiyalar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik.

2. O'zbekistonda ommaviy sport va sog'lom turmush tarzi targ'iboti

Jismoniy tarbiyaning maktab va oliy ta'lim tizimidagi o'rni, sportning barcha ijtimoiy qatlamlar uchun ochiqligi. "Sog'lom avlod" dasturi doirasida amalga oshirilgan ishlar.

3. Olimpiya harakati va xalqaro sport maydonida O'zbekistonning o'rni

Olimpiya o'yinlari, Osiyo o'yinlari va jahon chempionatlarida o'zbekistonlik sportchilarning ishtiroki va yutuqlari. Olimpiya sport turlarini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar.

4. Sport infratuzilmasi va texnologik innovatsiyalar

Zamonaviy stadionlar, sport majmualari va inshootlarning qurilishi, sportchilar uchun ilmiy-amaliy markazlar tashkil etilishi. Sport sohasiga raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning joriy etilishi.

5. O'zbekistonda milliy sport turlarining rivoji

Kurash, belbog'li kurash, ot sporti kabi milliy sport turlarining xalqaro miqyosda tanilishi. Ularning Olimpiya sport turlari qatoriga kiritilishi uchun qilinayotgan sa'y-harakatlar.

O'zbekistonda sport va jismoniy tarbiya tizimining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar

Yo'nalish	Ulushi (%)
Sport infratuzilmasini rivojlantirish	30%
Jismoniy tarbiya va ommaviy sport	25%
Xalqaro sport musobaqalaridagi ishtirok	20%
Bolalar va yoshlar sporti	15%
Sport ilm-fani va ta'lim tizimi	10%

Xulosa

Mustaqillik-yillarida O'zbekistonda sport va jismoniy tarbiya tizimi sezilarli darajada rivojlandi. Mamlakatda zamonaviy sport inshootlari barpo etilib, xalqaro maydonda katta muvaffaqiyatlarga erishildi. Davlat tomonidan sportni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar, qonunlar va dasturlar natijasida yosh avlod sog'lom turmush tarziga jalb qilinmoqda. Kelajakda sportni yanada rivojlantirish uchun innovatsion yondashuvlar va samarali strategiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1997.
3. Abduqodirov A., Jumanov S. Sport sotsiologiyasi. – Toshkent: Sharq, 2004.

4. Rasulov S. O'zbekiston Respublikasida sport siyosati va uning rivojlanish istiqbollari. – Toshkent: Fan, 2015.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-martdagi PQ-2821-sonli "Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish to'g'risida" qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi. O'zbekistonda sport rivojlanishining istiqbollari. – Toshkent: O'zbekiston, 2020.
8. Mahmudov M. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Universitet, 2012.
9. To'xtayev M. Sport menejmenti. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.
10. Otaboyev A. Sport va jismoniy tarbiya tizimida davlat siyosati. – Toshkent: Sharq, 2019.

SA'DIYNING GULISTON ASARIDA TA'LIMYIY TARBIYAVIY QARASHLAR

Temirov Abdumalik Ikrom o'g'li

Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

G.Spenser

Tarbiya ta'limdan ustun turadi. Insonni tarbiya voyaga etkazadi.

Annotatsiya

KIRISH: Ushbu maqolada Sa'diyning Guliston asari va undagi ta'limiy tarbiyaviy, axloqiy qarashlarning tahlili va ularning bugungi kundagi ahamiyati, sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari haqida so'z boradi.

MAQSAD: Sharq mutafakkirlarining ta'limiy-tarbiyaviy qarashlari asosida, ta'lim jarayonini tashkil etish, ulardan tarbiya jarayonida samarali foydalanish.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, axloq, oila, jamiyat, xulq, ma'naviyat, shaxs, bilim, kompetensiya, qobiliyat.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: Данная статья посвящена анализу произведения Саади «Гулистан» и содержащихся в нем воспитательно-нравственных взглядов и их значения сегодня, а также взглядов восточных мыслителей на образование.

ЦЕЛЬ: организовать учебный процесс на основе учебно-просветительских взглядов восточных мыслителей, эффективно использовать их в учебном процессе.

Ключевые слова: образование, воспитание, нравственность, семья, общество, поведение, духовность, личность, знания, компетентность, способности.

Annotation

INTRODUCTION: This article deals with the analysis of Saadi's work Gulistan and the educational and moral views in it and their importance today, and the views of eastern thinkers on education.

PURPOSE: to organize the educational process based on the educational and educational views of Eastern thinkers, to use them effectively in the educational process.

Key words: education, upbringing, morality, family, society, behavior, spirituality, personality, knowledge, competence, ability.

Ta'lim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan va shaxs, oila, jamiyat va davlat manfaatlarini ko'zlab amalga oshiradigan shuningdek, ma'lum bilimlar, ko'nikmalar, qadriyatlar, tajriba va kompetensiya yig'indisi bo'lgan intellektual, ma'naviy – ma'rifiy ta'limning yagona yo'naltirilgan jarayoni – shaxsning ijodiy, jismoniy va kasbiy rivojlanishi, uning ta'lim ehtiyojlari mahsulidir. Tarbiya bugungi hayotimizdagi muhim masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Qadim tariximiz namoyondalari ham bu haqda o'z asarlarida ta'kidlab o'tganlar. Masalan, alloma, shoir va donishmandlar orasida mashhur va qomusiy olimlardan biri Husayn Voiz Koshifiy o'zining pedagogik qarashlarida bolalarda mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish masalasiga alohida e'tibor beradi. Ota – onalar muallimlardan bu masalaga alohida ahamiyat berishni talab etadi. Bu masalada oilaviy hamda tashqi muhit muhim o'rin tutadi. Bola to'g'ri so'zli, va'daga vafodor, yaxshi xulqli qilib tarbiyalanishi kerakligini aytadi. Forobiy axloqiy fazilatlar deganda bilimdonlik, donolik va mulohazali bo'lish vijdonlilik, kamtarlik, ko'pchilik manfaatini yuqori qo'yish, haqiqat ma'naviy yuksaklikka intilish, adolatlilik kabi xislatlarni tushunadi. Ammo bu xislatlarning eng muhimi har bir inson bilimli, ma'rifatli bo'lishidir.

Shuning uchun ham Farobiy axloq tushunchasiga aql bilan uzviy bog'liq holda tafakkurga asoslangan axloq sifatida qaraydi. Bundan biz Farobiyning axloqni xulq me'yorlari ifodasi sifatidagina emas, balki kishilar aqliy faoliyatining natijasi sifatida ham talqin etilganligini ko'ramiz. Beruniy bilim olishni axloqiy tarbiya bilan bog'laydi, zero, insonda komillikning muhim mezonini yuksak axloqdir. Beruniy fikricha axloqlilik insonning eng asosiy sifati bo'lishi kerak. Bu xislat birdaniga tarkib topmaydi. U kishilarning o'zaro muloqoti, ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti jarayonida tarkib topadi.

Muslihiddin Sa'diy Sharq mumtoz madaniyatining yirik namoyandalaridan biri bo'lib, uning nomi butun dunyoga mashhur. Bu buyuk allomaning to'liq ismi Abu Abdulloh Mushrifiddin ibn Muslihiddin Sa'diy Sheroziy bo'lib, Sharq va G'arbda Shayx Sa'diy degan nom bilan ulug'lanadi. Muslihiddin Sa'diy ko'hna Eronning qadimiy shahri sanalgan Sherozda tug'iladi. Uning otasi Sheroz hokimining mulozimlaridan biri bo'lgan. Yosh Muslihiddin otasidan erta ajraladi. Shu bois unga saroy nafaqasi belgilanadi. Muslihiddin boshlang'ich ma'lumotni Sheroz shahrida oladi, so'ngra Bag'dod shahriga borib, u erda mashhur "Nizomiya" madrasasida tahsilni davom ettiradi. U madrasada ta'lim olish chog'ida arab va fors tillari grammatikasi hamda adabiyotlari asoslarini chuqur o'zlashtiradi. Sharq falsafasi asoslarini katta qiziqish bilan o'rganadi. Madrasada tahsil muddatini tamomlagach, Sharqning eng mashhur, shu bilan birga ilm-fan va madaniyat o'choqlariga aylangan shaharlar bo'ylab sayohatga chiqadi.

Muslihiddin Sa'diyning jahonshumul ahamiyatga ega bo'lgan "Guliston" va "Bo'ston" asarlarida allomaning ta'limiy-axloqiy qarashlari o'z ifodasini topgan. Manbalarda ta'kidlab o'tilishicha, muallif "Bo'ston" nomli asarini 1257, "Guliston" deb nomlanuvchi asarini esa 1258-yillarda yozgan.

Sa'diyning «Guliston» asarida ilgari surilgan ta'limiy-axloqiy qarashlar.

Mutafakkirning komil insonni tarbiyalash jarayonida muhim ahamiyat kasb etuvchi "Guliston" asari Sharq xalqlarining pedagogik fikrlari tarixida o'ziga xos uslubga ega didaktik asar sifatida tan olingan. Ushbu asar muallifning boy hayotiy tajribasi asosida yaratilganligi bilan ham qimmatlidir.

Asar sakkiz bobdan iborat bo'lib, ularning har birida axloqiy tarbiyaning u yoki bu jihatlari borasida so'z yuritiladi. Asarning tarkibiy tuzilmasidan o'rin olgan boblar quyidagicha nomlangan: «Podshohlar odati bayoni» (I-bob), «Darveshlar axloqi bayoni» (II-bob), «qanoatning fazilati bayoni» (III-bob), «Sukut saqlashning foydalari bayoni» (IV-bob), «Zaiflik va keksalik bayoni» (V-bob), «Ishq va yoshlik bayoni» (VI-bob), «Suhbat qoidalari bayoni» (VII-bob).

"Guliston" asarining mundarijasidan ham anglanadiki, asar mazmun va mohiyatiga ko'ra insonni etuklik, kamolotga etaklovchi omillar to'g'risidagi ma'lumotlarni yoritishga xizmat qiladi. Asarda Abu Nasr Farobiy, Yusuf Xos Hojib hamda Nizom ul-Mulk kabi mutafakkirlarning asarlarida bayon etilgani kabi insonning baxtli, saodatli bo'lishini ta'minlay oluvchi jamiyat, fozil, odil va adolatli hukmdor hamda uning fazilatlarini, saroy a'yonlari va ularning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, davlatni adolatli boshqarish shartlari, shuningdek, mavjud jamiyatda ustuvor o'ringa ega bo'lgan axloqiy me'yorlar xususida so'z yuritiladi. Mutafakkirning nuqtai nazariga ko'ra, tabiatan olib qaraganda hukmdor ham oddiy inson sanaladi, u ham shaxsiy manfaatlari yo'lida harakat qilish huquqiga ega, biroq zimmasiga yuklangan ijtimoiy vazifaga ko'ra u el-yurt manfaatini shaxsiy manfaatlaridan yuqori qo'yishi shart. Hukmdor, eng avvalo, yurt tinchligi va xalq farovonligini ta'minlash yo'lida sabot bilan kurashar ekan jamiyat taraqqiy etadi.

Muslihiddin Sa'diy podshohlarning yuksak insoniy sifatlarga ega bo'lishlarini orzu qiladi. El-yurt hukmdori sifatida e'tirof etilgan inson quyidagi fazilatlarini o'z qiyofasida namoyon eta olishi maqsadga muvofiqdir: adolatli, tadbirli, g'ayratli, shijoatli, fahm-farosatli, bilimdon, dono, ziyrak, oliyjanob, saxovatli, jasur, mard hamda fuqarolariga nisbatan g'amxo'r

bo'la, shuningdek, do'st bilan dushmanni farqiga bora olish. Muayyan mamlakat fuqarolariga etakchilik, boshchilik qilayotgan podshohlarning yuqorida qayd etilgan fazilatlar egasi bo'lishlari hayotiy zaruriyatligini muallif ibratli hikoyatlar misolida ochib beradi.

Asarda ushbu o'rinda quyidagi hikoyat keltiriladi: "Kunlardan bir kuni ov chog'ida mulozimlar No'shiravoni Odilga kabob tayyorlab berishmoqchi bo'libdilar. Biroq o'zlari bilan olishgan masalliqalar ichida tuz yo'q edi. Mulozimlar bir xizmatkorni ov uyushtirilayotgan manzilga yaqin qishloqdan tuz olib kelgani jo'nata dilar. No'shiravon xizmatkorga shunday deydi: «Tuzning bahosini to'lab ol, toki tekinga olish odat qatoriga kirib, qishloq xarobalikka yuz tutmasin». Mulozimlar undan so'radilar: «Shu zig'irdek narsadan qishloqqa qanday zarar etadi?» No'shiravon shunday javob berdi: «Avvalda olamda zulm oz edi, keyinchalik har bir kelgan odam bir oz bir ozdan qo'shdi, natijada zulm hozirgi darajasiga kelib etdi».

Fuqaroning bog'chasidan sulton uzsa bir olma,

Navkarlari qo'poradi daraxtlarning ildizin.

Zo'rlik bilan beshta tuxum ola qolsa podshoh,

Askarlari sixga tortar tovuqlardan besh yuzin».

Muslihiddin Sa'diy adolatli podshohlarning yorqin timsoli sifatida Iskandar Zulqarnaynni e'tirof etadi. Uning obrazi asosida mamlakatni adolat mezonlari yordamida boshqarishning muhim ahamiyatini ochib berishga harakat qiladi va quyidagi hikoyatni misol tarzida keltiradi: Iskandar Rumi (Zulqarnayn)dan so'radilar: «G'arbu Sharqdagi mamlakatlarni nima hisobiga zabt etding? Avvalgi podshohlarning xazinasi, yoshi va lashkari senikidan ortiq bo'lsa-da, bunday fothlik ularga nasib bo'lmagandi». Iskandar Zulqarnayn shunday javob beradi: «Zabt etgan mamlakatim fuqarolariga ozor bermadim va podshohlarning nomlarini faqat yaxshilik bilan yod etdim:

Aqlilar ulug'lama shundaylar zotin,

Ulug'larning yomonlik-la, yodlasa otin,

Taxtu baxt farmonlar, ta'qiq va zo'rlik,

Barchasi bekorchi, o'tib ketadi.

Siylasang o'tganlar aziz nomini,

Sening nomingga ham hurmat etadi».

Mutafakkir yurtga boshchilik qilayotgan hukmdorning yuksak aql-zakovat egasi bo'lishi mamlakatda adolatning qaror topishi, shuningdek, ma'rifatning rivojlanishida zarur omil ekanligiga ham alohida urg'u berib o'tadi. Hukmdorning nodon va befarosat bo'lishi xalq o'rtasida uning obro'-e'tiborini tushishiga sababgina bo'lib qolmay, kulgu bo'lishiga olib keladi.

Muslihiddin Sa'diy ham boshqa mutafakkirlar kabi ilm o'rganishning ahamiyati, bilim olish jarayonida amal qilinishi lozim sanalgan shartlar, mazkur shartlarga muvofiq faoliyatni tashkil etish qoidalari, ilm ahli va ularning odobi masalalari yuzasidan to'xtalib o'tar ekan, mavjud bilimlarni chuqur egallagan olimlarning xalq o'rtasida obro'-e'tiborlari yuqori bo'lishini aytadi. Bayon etilayotgan hikoyatlar mazmunida jamiyat a'zolarini oqil va dono kishilarni hurmat qilishga undovchi da'vat o'z ifodasini topgan. Ayni o'rinda ilmi kishilarning o'z bilimlarini jamiyat hamda insonlar uchun foyda keltiruvchi ishlarga sarf etishlari muhimligi alohida ta'kidlanadi: "Ikki toifa odam behuda ishlab, behuda harakat qilgan bo'ladi: biri mol-mulk yig'ib foydalanmagan va ikkinchisi esa ilm olib unga amal qilmagan odam". Xususan:

Harchan o'qibsan, bilimdonsan,

Agar amal qilmading, nodonsan,

Ustiga kitob ortilgan eshak,

Na olim va na donodir beshak".

Mazkur fikrni yanada boyitib, bir o'rinda «Ilmiga amal qilmagan olim mash'ala ko'targan ko'rga o'xshaydi!», – desa, yana bir o'rinda erni shudgor qilib, urug' sochmagan dehqonga o'xshatadi, ya'ni:

Kimki befoйда umrin o'tkazdi,

Hech narsa olmasdan, oltin ketkazdi.

Muslihiddin Sa'diy bilimli va fozil kishilarning so'z va amal birligiga tayanishlari maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlaydi. Ezgu so'zlarni aytuvchi olimlarning bildirilgan fikrlarga o'zlari amal qilmasliklari kishilar oldida obro'larining tushishiga sabab bo'luvchi omillardan biridir degan g'oyani ilgari suradi.

Alloma ilm o'rganish jarayonida munozara uslubidan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlaydi. Muslihiddin Sa'diyning nuqtai nazariga ko'ra, bahs-munozara oydin bo'lmagan fikrlarni oydinlashtirish, aniq bo'lmagan dalillarni asoslash, shuningdek, haqiqatni to'laonli anglashga yordam beradi. Bahs-munozarani tashkil etish ma'lum qoidalarga asoslanishi zarur. Chunonchi, o'zgalarning fikrini diqqat bilan tinglay olish, o'z fikrini ilgari surishda ishonchli dalillardan foydalanish, asosli bo'lmagan dalillarni keltirish orqali vaqtni behudaga sarf etmaslik, nodon bilan bahslashmaslik. Munozara chog'ida o'zini bilimdon etib ko'rsatish o'z nodonligini namoyish qilishdir, – deydi alloma. «O'z navbatida johil bilan bahslashgan olim izzat umid qilmay qo'ya qolsin. Basharti, johil bellashuvda olimdan ustun chiqsa, ajablanarlik eri yo'qdir, zero, tosh hamisha gavharni sindiradi, xususan:

Oqilga past kishi ko'rguzsa jafo,

Ko'p alam chekmasin bo'lib dilsiy.

Arzon tosh sindirsa zar kosani gar

Tosh narxi oshmaydi, pastga tushmas zar».

Ayrim vaziyatlarda nodon kishilar odil va dono insonlarni asossiz fikrlarni bayon etish orqali ularni mag'lub etdim deb hisoblaydilar. Munozara jarayonida dono inson o'zining ushbu fazilatiga tayangan holda nodon bilan bahslashishni o'zi uchun or deb biladi va ana shu xatti-harakati tufayli badfe'l kishilardan ustun bo'lib qolaveradi, xalq orasidagi hurmati yanada oshadi. Muslihiddin Sa'diy ushbu fikrni quyidagi misralar yordamida yanada to'ldiradi:

Dononi sharmanda qildim-ku, deya,

G'ururga berilmish maqtanchoq, nodon,

Bilmaski, nog'ora ovozi doim,

“Hijoz” kuyin bosib ketadi oson.

Ilm-fanning ilmiy bahs-munozaralarsiz rivojlanmasligi g'oyasi alloma tomonidan ilgari surilgan mazkur fikrda ham o'z ifodasini topgandir: quyidagi uch holat abadiy mavjud bo'lmaydi: mol savdosiz, ilm bahssiz va davlat siyosatsiz.

Muslihiddin Sa'diy ham bilim olishning afzalliklarini yoritib berish bilan birga ma'lum hunar sirlarini egallashning inson hayotidagi ahamiyatini ko'rsatib berishga urinadi. Allomaning qayd etishicha, muayyan hunarning egasi bo'lgan inson eng mashaqqatli damlarda ham o'zgalarning yordami va madadiga muhtoj bo'lmaydi, balki o'z hunarining sharofati bilan muammolarni hal eta oladi. Shuningdek, hunarmand xalq o'rtasida hurmatga ega bo'ladi. Zero, u insonlarning koriga yaraydi, ularning mushkullarini echilishiga yordam beradi. Hunarsiz kimsa esa hamisha o'zgalardan madad kutib yashaydi, xoru zorlikda umr kechiradi. Mutafakkir ta'kidlab o'tganidek, “Hunar qaynar buloq, tuganmas davlat. Agar hunarmand molidan mahrum bo'lsa, qayg'usi yo'qdir, chunki hunarning o'zi davlatdir. Hunarmand qayerga borsa, qadrlanadi va uyning to'ridan joy oladi.

Allomaning mazkur fikrlaridan, bugungi kun yoshlarining ham muayyan kasb yoki hunar sirlarini qunt bilan o'rganishlari hayotiy zaruriyat ekanligini anglash mumkin. Atrofdagi kishilarning turmush tarzlari mohiyatini tahlil etsak, ma'lum kasb yoki hunar bo'yicha ma'lumotga ega insonlar bilan kasb va hunarsiz kishilar o'rtasidagi farqni yaqqol sezamiz. Ularning dunyoqarashlari, atrofdagilar bilan munosabatlari, hayotiy yondashuvlari ham bir-birlaridan farq qiladi. Muslihiddin Sa'diyning “Guliston” asarida inson kamolotining ta'minlanishida tarbiyaning alohida o'rin tutishiga ham urg'u beradi. Tarbiya jarayonini tashkil etish murakkab jarayon ekanligini ta'kidlagan holda bolaga juda yoshligidan tarbiya berish

maqsadga muvofiqligini uqtiradi. Zero, yoshlik-yillarida bola ongiga singdirilgan axloqiy talablar uning xarakteri, xulq-atvorining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu fikr mutafakkir qarashlarida shunday aks etadi:

Kimga yoshligidan berilmas odob,
Ulg'aygach, bo'ladi baxtsiz, dili g'ash.
Ho'l novda egilar qay xilda egsang,
Quruqni to'g'rilar faqat o't-otash.

Muslihiddin Sa'diy mazkur asarida yuksak darajadagi insoniy xislatlar va ularga ega bo'lishning inson hayotidagi ahamiyati borasida ham batafsil so'z yuritadi.

Muslihiddin Sa'diyning ta'lim va tarbiya masalalari borasidagi qarashlari hayotiy hamda amaliy ekanligi bilan e'tiborga sazovor. Xususan, alloma ta'lim olish yoki yoshlar tarbiyasini tashkil etishning u yoki bu jihatlari xususida so'z yuritir ekan, ayni o'rinda bu borada yo'lga qo'yiluvchi faoliyatning uslubini ham bayon etadi.

Mazkur misralar mazmunida Muslihiddin Sa'diyning ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish jarayonida muayyan me'yorlarga tayanib ish ko'rish, bolalarga nisbatan qattiqqo'l yoki yumshoqfe'lli bo'lishda ham mo'tadillikka erishish maqsadga muvofiq degan g'oyaning ilgari surayotganligi anglanadi. Shuningdek, ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishda badxulq va yovuz kimsalarga nisbatan qattiqqo'l, aksincha, xushxulq va yaxshi fe'lli insonlarga nisbatan xushmuomala bo'lishni tavsiya etadi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlar mazmunidan anglanadiki, Muslihiddin Sa'diy ham boshqa allomalar kabi insonni tabiat, Olloh yaratgan eng oliy mavjudot deya e'tirof etadi. Biroq insonning oliy mavjudotligi qachonki uning yuksak darajadagi insoniy fazilatlarni o'zida namoyon eta olgandagina tan olinishiga urg'u beradi.

Xulosa qilib aytganda, Muslihiddin Sa'diy o'zining "Guliston" asarida inson kamolotining asosiy omillari sanalgan ma'naviy-axloqiy hamda jismoniy kamolotga erishishning inson hayotidagi ahamiyati, ilm o'rganishning o'ziga xos afzalliklari, muayyan kasb yoki hunar o'rganishning o'ziga jihatlari, shuningdek, insonda axloqiy sifatlarni tarbiyalash masalalari xususida so'z yuritadi. Allomaning fikricha, quyidagi fazilatlarni o'z qiyofasida mujassam eta olgan insongina haqiqiy ma'noda komil, etuk inson sanaladi: bilimli, mehnatsevar, kamtar, oliyjanob, himmatli, saxovatli, saxiy, shijoatli, g'ayratli, qat'iyatli, mard, jasur, jismonan kuchli, to'g'riso'z, bergan va'dasiga vafodor, adolatli, do'stga sodiq, o'z kuchi va mehnatiga tayanib ish ko'ruvchi va hokazolar. Mutafakkir tomonidan ta'lim - tarbiya masalalariga bag'ishlab yaratilgan asarlar hamda ularning mazmunida ilgari surilgan g'oyalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ular pedagogik fikr taraqqiyotida o'ziga munosib o'ringa egadir.

REFERENCES

1. Xayrullayev M.M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkirlari. Toshkent: O'zbekiston, 1971. - 310 b.
2. Hayitmetova A. "Bo'ston" va o'zbek adabiyoti // Shayx Sa'diy va o'zbek adabiyoti. – Tehron-Toshkent, 2004. 42-b.
3. Shayx Sa'diy Sheroziy. Guliston. Toshkent: Abdulla Qodiriy nomli xalq merosi nashriyoti, 1993. – 247 b.
4. Temirov Abdumalik Ikrom o'g'li. (2023). O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIMNING YO'LGA QO'YILISHI.

Лучшие интеллектуальные исследования, 8 (4), 12–15. Retrieved from <https://web-journal.ru/journal/article/view/1168>

5. O'QITUVCHILARNI TA'LIMIY QADRIYATLAR ASOSIDA PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH. (2024). *INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE*, 1 (6), 153-158. <https://universalconference.us/universalconference/index.php/icms/article/view/1991>

JAMOAVIY SPORTDA RUHIY TAYYORGARLIKNING ROLI VA AHAMIYATI

*Saidov G'olibjon Komilovich**Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada sportchi yoshlarning mashg'ulot jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan jismoniy va ruhiy charchoq, ayniqsa yirik musobaqalar oldidan ularda paydo bo'ladigan psixologik muammolar, stress holatlari va ularning oldini olish choralari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Sport murabbiyi, sport faoliyati, jismoniy tarbiya, stress, sport psixologiyasi, chempion sportchi.

Annotation. This article discusses the physical and mental exhaustion that young athletes may experience during their training process, particularly the psychological issues and stress they encounter before major competitions, as well as strategies to prevent them.

Keywords: Sports coach, sports activity, physical education, stress, sports psychology, champion athlete.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich tomonidan jismoniy tarbiya va sportga alohida e'tibor qaratilayotgani ayni paytda respublikamizda sport sohasining davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligini, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashga ustuvor ahamiyat berilayotganligini ko'rsatadi. Bu jarayon, shu bilan birga, sportning har tomonlama mukammal qonuniy va tashkiliy asoslari yaratilganligi tufayli talaba yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantiruvchi va ularni jismoniy va ma'nan to'liq rivojlantirishga yo'naltirilgan asosiy omilga aylanmoqda.

Respublikada jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish, aholining barcha qatlamlarini, ayniqsa yoshlarni jismoniy faoliyat va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb qilish, O'zbekiston sport turlari bo'yicha terma jamoalari tarkibini shakllantirishda shaffoflikni ta'minlash, ularning tarkibiga iqtidorli sportchilarni saralash (seleksiya) metodologiyasini ishlab chiqish hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-dekabrda PF-5887-son "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari" va 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son "Jismoniy tarbiya va sportni takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari" haqidagi Farmonlari qabul qilindi. Ushbu qonunlar va qarorlar mamlakatimizdagi sportni rivojlantirishda muhim asosiy manbalar sifatida xizmat qilmoqda.

Sport musobaqalarida yuqori natijalarga erishish uchun hozirgi kunda faqat jismoniy tayyorgarlik emas, balki innovatsion yondashuvlarning sportga kirib kelishi ham katta ahamiyatga ega. Ya'ni, sportni ilmiy va metodologik jihatdan o'rganish, sportchilar natijalarining sezilarli o'zgarishiga olib kelishini takidlash joiz. Bunga misol sifatida Rio-2016, Tokio-2020 va Parij-2024 Olimpiadalaridagi muvaffaqiyatlarimizni keltirish mumkin. Ushbu nufuzli musobaqalarda mamlakatimiz sportchilari ko'rsatgan yuqori natijalar, innovatsiyalarni sportga joriy etish va ilmiy yondashuvlarni tatbiq etishning aniq misolidir. Ayniqsa, yosh avlodni hozirgi chempionlarimizga munosib zaxira sifatida tarbiyalash jarayoni juda muhim hisoblanadi. Ko'plab hollarda yirik musobaqalar oldidan sportchilarimizning psixologik

zo'riqishga uchrashi kuzatiladi. Bu shuni anglatadiki, sportchilarning ruhiyatini boshqarish, o'zlarining hissiyotlarini to'g'ri yo'naltira olishlari uchun sport psixologining o'rni juda muhim. Bu masala ko'p hollarda alohida ta'kidlanadi, chunki sport murabbiyi ko'p qirrali rolda faoliyat yuritadi:

1. Sport murabbiyi - murabbiy sifatida.
2. Sport murabbiyi - psixolog sifatida.
3. Sport murabbiyi - ota-ona sifatida.
4. Sport murabbiyi - tibbiy xodim sifatida.

Albatta, murabbiyning o'z shogirdini anglashini boshqa hech bir shaxs to'liq tushunishi juda murakkab. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, murabbiy shaxsi sportchini qaysi musobaqaga tayyorlashidan qat'i nazar, uni atrofdagi har bir holatga nisbatan qizg'anadi va boshqa hech kimning unga yordam berishini xohlamaydi. Ko'plab sport psixologlari yoki umumiy psixologlar tavsiyalariga ko'ra, sportchi shaxsini tarbiyalashda har bir mutaxassisning o'rni alohida ahamiyatga ega. Sport turlari rivojlanishda respublikamizda jamoaviy sport turlari ancha orqada qolayotganligi ko'p marta ta'kidlanadi. Bu savol yuzaga kelganda, turli mutaxassislar har xil fikr bildiradilar. Ba'zilar buni murabbiylarning malakasi bilan bog'lasa, boshqalar yakka kurash uchun yoshlarning antropometrik ko'rsatkichlari mos kelmasligini aytishadi. Ko'plab jarayonlarda bu masalani murabbiy bilan bog'lashadi, ammo biz boshlanishda aytganimizdek, har bir sohada o'z mutaxassisining faoliyati bu jarayonlarni ijobiy tomonga o'zgartirishga yordam beradi.

O'zbekistonda sport jamoalari, klublari, kollej va sport maktablariga bolalar va o'smirlarni jalb qilish, ularni sport mashg'ulotlari va musobaqalarga jismoniy va psixologik jihatdan tayyorlash uchun zarur imkoniyatlar yaratilmoqda. Respublikamizda an'anaviy tarzda shahar, viloyat va respublika birinchiliklari kabi musobaqalar o'tkazilishi yoshlarni sport bilan muntazam shug'ullanishlariga katta turtki bermoqda. Qaysi jamoa sportchilari ma'lum bir yo'nalish bo'yicha yaxshi natijalarga erishgan bo'lsa, chet el jamoalari bilan tajriba almashish uchun ko'plab imkoniyatlar yaratilib, ularni o'zaro munosabatlarda bo'lishlariga sharoitlar yaratilmoqda. Jumladan, davlat tomonidan sport jamoalariga, ayniqsa, bolalar sportini rivojlantirish va boshqa maqsadlarga aniq moddiy mablag'lar, sport anjomlari ajratilmoqda, shuningdek, barcha qulayliklarga ega sport inshootlari qurilib, foydalanishga topshirilmoqda. Sportchilarimiz jahon va Olimpiada o'yinlarida ishtirok etishmoqda.

Sportchilarmizning Osiyo va xalqaro musobaqalarda yuqori natijalarga erishishida "Sport psixologiyasi" fanining alohida o'rni bor. Chunki sport jamoalari g'alabasini ta'minlashda ushbu fanning nazariy va amaliy asoslarini chuqur o'zlashtirgan murabbiylar qatori, jamoa ruhshunoslari ham katta ahamiyatga ega. Ular jamoada sportchilarni g'alabaga undaydigan ma'naviy-ruhiy sifatlarga ega bo'lishini ta'minlash, o'zaro munosabatlarda yagona maqsad sari birlashishni, salbiy hissiyotlarni bartaraf etishni ilmiy izlanishlar va amaliy ishlar orqali amalga oshiradilar. Sport jamoalaridagi o'zaro munosabatlar mazmuni, sharoiti va ta'sirini o'rganish hamda natijalarni tahlil qilish, jamoadagi psixologik muhitni yaxshilashda va sportchilarning ma'naviy-ruhiy sifatlarga ega bo'lishini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Bu esa jamoa uchun katta muvaffaqiyatlar keltiradi. Shu sabab so'nggi-yillarda guruhlardagi o'zaro munosabatlar va ularning bir-biriga ta'siri, liderlik muammolari keng o'rganilmoqda; ilmiy ishlar va ilmiy-ommaviy maqolalar yozilayotgan bo'lsa-da, ularning ko'pchiligi ishchi jamoalari, xalq ta'limi tizimi va harbiy bo'linmalardagi ofitser va askarlar

orasidagi munosabatlarni o'rganishga qaratilgan. Sport jamoalaridagi o'zaro munosabatlarning psixologik tahlili hali to'liq o'rganilmagan. Sport jamoasini turli maqsadlar asosida o'rganish mumkin. Sport jamoasi a'zolari aniq tartib va intizom doirasida birlashgan, shakllangan bo'lib, o'zlarini guruhda teng huquqli munosabat yurituvchi shaxs sifatida namoyon qilishga harakat qiladilar. Shuningdek, mahallada zarurat yuzasidan tuzilgan jamoaga nisbatan, maktab jamoasi tuzilishi mustahkam bo'ladi.

Maktab sport jamoasiga qaraganda, professional jamoalar yanada mustahkamroq birlashgan bo'ladi. Bu holatni quyidagicha izohlash mumkin:

1. Sport guruhlarining psixologik yaqinligi, ma'naviy va ruhiy jihatdan birlashganligi, maqsadga, ya'ni g'alabaga intiluvchanligi bilan ajralib turadi;

2. Sport jamoalaridagi guruhlar son jihatdan turlicha bo'lib, qiyinchiliklarni engishda chidam bilan harakat qilishadi. Masalan, voleybol, gandbol, basketbol va futbol komandalarida maydonda 5 tadan 11 tagacha o'yinchi qatnashadi;

3. Jamoadagi sportchilarning umumiy maqsadi aniq belgilangan bo'lib, bu maqsad murabbiy va sportchilarning barcha kuch va mahoratini safarbar etishni taqozo qiladi. Jamoadagi sportchilarning umumiy maqsadi esa yuqori natijalarga erishishga qaratilgan bo'ladi. Biroq mustahkam birlashmagan ayrim jamoalar sportchilari ichki nizolar sababli musobaqalarda mag'lubiyatga uchrashadi;

4. Sportchilarning jamoa manfaatlari uchun birlashishi sport jamoasining yuqori darajada rivojlangan shakli hisoblanadi.

Sport jamoalarida sportchilarning ma'naviy-ruhiy fazilatlarini quyidagi omillar belgilaydi:

- Jamoa a'zolarining o'zlari tanlagan sport turiga mehr qo'yishi, umumiy maqsadga intilish va ma'rifiy-mafkuraviy bilimlarga ega bo'lishi;
- Jamoaning umumiy maqsad yo'lida birlashishi, guruhdagi yutuqlar va maqsadlarni to'g'ri tahlil qilish va anglash;
- Jamoani qiyin vaziyatlardan chiqara olish qobiliyati.

O'zbekiston sport jamoalari musobaqalarda jismoniy va ma'naviy-ruhiy jihatdan mukammal tayyorgarlik ko'rganligi sababli, Jahon, Osiyo va Olimpiada o'yinlarida faol ishtirok etib kelmoqda. Masalan, 2024-yilda Rarij shahrida o'tkazilgan Olimpiadada ishtirok etib, 8 oltin, 2 kumush, 3 bronza (umumiy 13 ta) medalni qo'lga kiritib, umumjamoa hisobida 13-o'rinni egalladi. Olimpiada o'yinlarida dunyoning ko'plab mamlakatlari sportchilari o'z yurtlarini sharaf bilan himoya qilish maqsadida maydonga tushdi. O'zbek sportchilari ham o'z muvaffaqiyatlari bilan faxrlanib, yuqori natijalarga erishdilar. Shu-yillar ichida O'zbekistonda ko'plab mahoratli sportchilar etishib chiqqan. Bu esa tasodifiy emas, balki o'zbek xalqining tarixiy taraqqiyoti, yuqori madaniyati, tarixiy pahlavonlarining tajribasi va go'zal an'analari ta'siridan kelib chiqqan.

Bolalar va o'smirlar sport maktablari, sport inshootlari, asbob-uskunalar va jihozlar bilan ta'minlanib, sport sohasida sezilarli yutuqlarga erishildi. Futbol, engil atletika, kurash, tennis, basketbol, sharqona yakka kurash va boshqa sport turlari bo'yicha iqtidorli murabbiylar ko'rik-tanlovlari o'tkazilib, ularning malakalari doimiy ravishda oshirilmoqda. Sport jamoalarida psixologik xizmatning joriy etilishi esa respublikamiz sportining rivojida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Bolalar va o'smirlar sport maktablari yoshlarni sportga jalb qilishda joylarda o'tkaziladigan turli xil musobaqalarni kuzatib, tanlab olingan bolalarni maxsus treninglardan o'tkazish, ularning sportga qiziqishlarini suhbatlar orqali aniqlash va nazariy bilimlarini tekshirishga jiddiy e'tibor qaratmoqda. Haqiqatan ham, sport jamoalari o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda jozibadorlikni namoyon etmoqda: ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarda, ijtimoiy ongni shakllantirishda, mafkuraviy, ma'naviy-ruhiy fazilatlarni rivojlantirishda katta ishlar olib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9 martdagi "O'zbekiston sportchilarini 2020-yilda Tokio shahrida o'tkaziladigan XXXII Olimpiya o'yinlari va XVI Paralimpiya o'yinlariga tayyorlash haqida"gi PF-2821-son farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 4 dekabrda PF-5887-son farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son farmoni.
4. Rasulov.Z.O' "Sportda musobaqadan oldingi holatning umumiy psixologik tavsifi". Dissertatsiya. 2013-yil.
5. V.R.Valkin L.Rogaleva "Emotional intelligent rating in physical education institute coach and student". Dissertatsiya. 2018.
6. Y.Masharipov "Sport Psixologiyasi". Toshkent-2010y.
7. N.Nazarov "Sportchi xarakterini rivojlantirish vositalari". Dissertatsiya. 2020.

**ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЕ УМЕНИЯ И ЛИЧНОСТНЫЕ КАЧЕСТВА
ПЕДАГОГА***Сакиева Зулхумор Махкамовна**Студентка Бухарского государственного университета***Аннотация**

В статье рассматривается важность сочетания профессиональных умений и личностных качеств педагога как основного фактора успешной образовательной деятельности. Анализируются ключевые профессиональные компетенции современного учителя, включая методическую подготовку, коммуникативные навыки, умение применять инновационные подходы. Особое внимание уделяется личностным чертам, которые способствуют формированию благоприятной атмосферы обучения: эмпатии, терпению, ответственности и мотивации к постоянному саморазвитию. В заключение подчёркивается необходимость гармоничного развития как профессиональных, так и личностных аспектов в педагогической практике.

Ключевые слова: педагог, профессиональные умения, личностные качества, компетенции, педагогическая деятельность, саморазвитие.

Введение

Педагог — это не просто человек, передающий знания, но и личность, формирующая мировоззрение, ценности и социальные установки учащихся. Современное общество предъявляет к учителю высокие требования, обусловленные не только развитием технологий и изменений в образовательной среде, но и необходимостью воспитания гармонично развитой личности. Именно поэтому особое значение приобретает интеграция профессиональных умений с личностными качествами педагога.

Цель данной статьи — раскрыть содержание профессиональных умений и личностных качеств, необходимых современному педагогу для эффективной профессиональной деятельности, а также показать, как их сочетание способствует достижению успеха в образовательной практике.

Профессиональные умения педагога**Методическая подготовка**

Одним из основополагающих профессиональных умений педагога является методическая компетентность. Учитель должен владеть разнообразными методами и приёмами обучения, уметь адаптировать их под особенности аудитории, возрастные и индивидуальные характеристики учащихся. Это включает:

- Планирование и проектирование учебного процесса;
- Подбор эффективных методических приёмов;

- Конструирование учебных заданий разного уровня сложности;
- Владение технологиями критического мышления и интерактивного обучения.

Методическая подготовка позволяет педагогу сделать образовательный процесс гибким и адаптивным, что особенно важно в условиях постоянно меняющихся образовательных стандартов и запросов общества.

Коммуникативные навыки

Эффективное взаимодействие с учениками, родителями и коллегами требует от педагога развитых коммуникативных способностей. Учитель должен уметь:

- Чётко и доступно излагать материал;
- Слушать и понимать собеседника;
- Разрешать конфликтные ситуации конструктивно;
- Поддерживать обратную связь с учащимися;
- Создавать атмосферу взаимного уважения и доверия.

Коммуникация в образовательной среде выходит за рамки простого обмена информацией. Это способ вдохновлять, мотивировать, передавать ценности и формировать социально приемлемое поведение.

Информационно-коммуникационные технологии (ИКТ)

Современный педагог должен уверенно использовать ИКТ в своей работе. Это умение включает в себя:

- Создание мультимедийных презентаций;
- Использование образовательных платформ и электронных журналов;
- Проведение дистанционных занятий;
- Использование цифровых инструментов для индивидуализации обучения.

Интеграция технологий в учебный процесс делает его более интерактивным и интересным для обучающихся, а также открывает новые возможности для развития педагогической практики.

Организационные навыки

Умение организовывать учебную деятельность учащихся — ещё одна важная профессиональная компетенция. Педагогу необходимо:

- Планировать учебные занятия;
- Рационально использовать учебное время;
- Организовывать внеурочные мероприятия;
- Управлять учебной группой, поддерживать дисциплину.

Организованность помогает сделать учебный процесс структурированным, логичным и результативным.

Личностные качества педагога

Эмпатия и чуткость

Понимание эмоционального состояния ученика, способность сопереживать и оказывать поддержку — важнейшие личностные качества учителя. Эмпатичный педагог:

- Легче устанавливает доверительные отношения с учениками;
- Быстрее замечает проблемы в коллективе;
- Создаёт безопасную и комфортную атмосферу на уроке;
- Способствует формированию позитивного микроклимата в классе.

Эмпатия позволяет педагогу увидеть не только учебные, но и личностные трудности ребёнка, своевременно поддержать и помочь.

Терпение и выдержка

Работа с детьми и подростками требует высокого уровня эмоциональной устойчивости. Терпеливый педагог:

- Спокойно реагирует на затруднения учащихся;
- Не раздражается в конфликтных ситуациях;
- Последовательно добивается поставленных целей;
- Поддерживает позитивный настрой у себя и обучающихся.

Выдержка помогает справляться с профессиональными стрессами и сохранять продуктивность в сложных условиях.

Ответственность и надёжность

Педагог несёт ответственность не только за результаты обучения, но и за воспитание личности. Ответственный учитель:

- Добросовестно выполняет профессиональные обязанности;
- Соблюдает педагогическую этику;
- Служит примером для учащихся;
- Надёжно защищает интересы учеников.

Ответственность формирует у педагога высокую внутреннюю мотивацию и способствует развитию профессионального мастерства.

Открытость к новому и стремление к саморазвитию

Современный образовательный процесс требует от учителя постоянного развития и обновления профессиональных знаний. Педагог, ориентированный на саморазвитие:

- Осваивает новые педагогические технологии;
- Активно участвует в профессиональных сообществах;
- Посещает семинары, вебинары и курсы повышения квалификации;
- Ведёт самоанализ и саморефлексию.

Стремление к развитию позволяет педагогу оставаться конкурентоспособным специалистом и эффективно реагировать на вызовы времени.

Сочетание профессиональных умений и личностных качеств

Эффективность педагогической деятельности во многом определяется не только наличием профессиональных умений, но и личностных качеств. Идеальный учитель — это гармоничное сочетание профессионала своего дела и высоконравственной личности.

Такое сочетание позволяет педагогу:

- Формировать образовательную среду, способствующую всестороннему развитию личности ученика;
- Устанавливать глубокие, доверительные отношения с обучающимися;
- Вдохновлять учащихся на достижения;
- Быть гибким и адаптивным в профессиональной деятельности;
- Противостоять профессиональному выгоранию.

Без высоких личностных качеств даже самый грамотный с методической точки зрения педагог не сможет эффективно выполнять свои задачи. И наоборот, без профессиональных компетенций даже искреннее желание помочь ученикам может остаться безрезультатным.

Современные вызовы и требования к педагогу

Современная школа сталкивается с рядом вызовов: цифровизация, инклюзивное образование, межкультурное взаимодействие, глобализация. Всё это требует от учителя гибкости, толерантности и умения работать в условиях неопределённости.

Современный педагог должен:

- Уметь работать с разными категориями обучающихся, включая детей с ограниченными возможностями здоровья;
- Быть готовым к взаимодействию в мультикультурной среде;
- Эффективно использовать цифровые ресурсы и платформы;
- Проявлять креативность в разработке образовательного контента.

Постоянные изменения в образовательной сфере диктуют необходимость не только поддерживать, но и развивать профессиональные умения и личностные качества на протяжении всей карьеры.

Пути развития профессиональных умений и личностных качеств педагога

Повышение квалификации

Регулярное участие в курсах повышения квалификации, семинарах, мастер-классах позволяет педагогу быть в курсе последних тенденций в образовании и совершенствовать профессиональные навыки.

Самообразование

Чтение профессиональной литературы, участие в профессиональных онлайн-сообществах, изучение новых методик и технологий — важнейшие элементы профессионального роста.

Рефлексия профессиональной деятельности

Анализ собственных успехов и трудностей, осмысление опыта и планирование путей дальнейшего развития способствуют профессиональному совершенствованию.

Обратная связь. Получение обратной связи от учеников, родителей и коллег позволяет педагогу объективно оценить свою работу и скорректировать профессиональные действия.

Личностное развитие. Развитие эмоционального интеллекта, стрессоустойчивости, навыков саморегуляции и управления временем помогает поддерживать высокую профессиональную эффективность.

Таблица

№	Профессиональные умения педагога	Личностные качества педагога
1	Методическая подготовка (планирование уроков, подбор методов обучения)	Эмпатия и чуткость (понимание эмоций и потребностей учащихся)
2	Коммуникативные навыки (ясное изложение материала, ведение диалога)	Терпение и выдержка (спокойная реакция на трудности и конфликты)
3	Владение ИКТ (информационно-коммуникационными технологиями)	Ответственность и надёжность (выполнение профессиональных обязанностей, служение примером)
4	Организационные навыки (управление учебной группой, организация мероприятий)	Открытость к новому, стремление к саморазвитию (постоянное обновление знаний и умений)
5	Способность адаптировать обучение под особенности учеников	Стрессоустойчивость (умение сохранять продуктивность в сложных ситуациях)
6	Владение методами интерактивного обучения и критического мышления	Коммуникабельность и доброжелательность (создание позитивной атмосферы)
7	Умение работать с образовательной документацией (ФГОС, рабочие программы)	Честность и справедливость (объективность в оценивании и отношениях с учащимися)
8	Проведение анализа и рефлексии своей педагогической деятельности	Энтузиазм и увлечённость своей профессией (вдохновение учеников личным примером)
9	Способность эффективно работать с родителями и коллегами	Гибкость мышления (готовность к изменениям и новым подходам)

№	Профессиональные умения педагога	Личностные качества педагога
10	Построение индивидуальных образовательных маршрутов	Настойчивость и целеустремлённость (достижение целей, несмотря на препятствия)

Заклучение

Педагог — это профессия, которая требует не только глубоких профессиональных знаний и умений, но и высоких личностных качеств. Эффективный учитель способен не только передать знания, но и вдохновить, поддержать, направить ученика на путь личностного роста и развития.

Современные образовательные реалии предъявляют к педагогу требования постоянного развития, самообразования и гибкости. Гармоничное сочетание профессиональных умений и личностных качеств позволяет учителю справляться с вызовами времени, создавать эффективную образовательную среду и оказывать позитивное влияние на будущее своих учеников.

Таким образом, профессиональная компетентность и личностная зрелость педагога являются взаимодополняющими составляющими успешной педагогической деятельности. Только их единство позволяет учителю быть настоящим мастером своего дела, наставником и вдохновителем для новых поколений.

Литература:

1. Александрова, Е. А. Педагогика: Учебник для вузов. — М.: Академический проект, 2022. — В учебнике системно изложены основы педагогической деятельности, профессиональные компетенции педагога, а также личностные качества, необходимые для эффективного воспитания и обучения.
2. Выготский, Л. С. Психология развития человека. — М.: Педагогика, 2021. — Классическое произведение, раскрывающее вопросы развития личности, социализации и роли педагога в формировании личности обучающегося.
3. Зимняя, И. А. Педагогическая психология. — М.: Логос, 2020. — В книге подробно рассматриваются психологические аспекты педагогической деятельности, включая личностные качества педагога и их влияние на образовательный процесс.
4. Шевченко, Е. И. Профессиональная компетентность современного педагога. — СПб.: Питер, 2019. — Работа посвящена формированию профессиональной компетентности учителя в условиях модернизации образования.

**ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЕ УМЕНИЯ И ЛИЧНОСТНЫЕ КАЧЕСТВА
ВОСПИТАТЕЛЯ ДОУ****Кочеткина Алёна Александровна***Студентка Бухарского государственного университета***Аннотация**

